

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

HOZIRGI ZAMON O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Mavzu: BADIY ASARDA KOMPOZITSIYA VA EPIGRAFNING ROLI

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi:

Qurbonova L

Ilmiy rahbar:

dots. Qobilov U

Malakaviy bitiruv ishi hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2011–yil 20-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnomasi №___)

Kafedra mudiri:

prof.H.Umurov

Malaviy bitiriv ishi YaDAKning 2011-yil ----- iyundagi majlisidahimoya qilindi va ----- foizga baholandi (bayonnoma № ____)

YaDAK raisi:

A'zolari:

SAMARQAND – 2011

REJA:

KIRISH.

I BOB. Badiiy asar kompozitsiyasida sarlavhaning oʻrni

II BOB. Asar sarlavhasi – maʼno ifodalovchi markaz

III BOB. Epigrafning badiiy asar qurilishidagi mavqei

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. Badiiy asar kompozitsiyasida sarlavhaning o'рни.....	7
II BOB. Asar sarlavhasi – ma'no ifodalovchi markaz.....	19
III BOB. Epigrafning badiiy asar qurilishdagi mavqei.....	61
XULOSA.....	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	71

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz istiqlolga erishgandan keyin ijtimoiy hayotimizning barcha javhalarida katta o'zgarishlar yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'ziga xos o'rin egallagan mamlakat sifatida namoyon bo'ldi. Mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'daniy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotida shu qisqa davr ichida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishiga zamin tayyorladi. Ma'lumki, davlatimiz istiqlolning ilk kunlaridan boshlab, taraqqiyotning o'ziga xos va mos yo'llarini tanlab oldiki, bu yo'l o'zining har jihatdan asosli ekanligini isbotladi. Shuni aytishimiz kerakki, O'zbekiston davlati va bu mamlakatda yashayotgan xalq va millatlar tarixi nihoyatda uzoq zamonlarga borib taqaladi. Unda tarixiy-taraqqiyotning barcha sinovlari bosib o'tilgan. Mamlakatimiz ko'plab bosqinlarni ham, milliy ozodlik uchun kurashlar tarixini ham boshidan kechirgan. Ilm-fan, madaniyat, falsafa, adabiyot va umuman, jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan barcha sohalarda yuksak yutuqlarni qo'lga kiritgan. Bu hududdan jahon ilm va madaniyatini ravnaq ettirishga xizmat qilgan buyuk olimlar, mutafakkirlar, ilmiy-badiiy ijod sohiblari etishib chiqqan. E'tiborli tomoni shundaki, mamlakatimizning mustaqillikni qo'lga kiritgan davrlaridan boshlaboq Prezidentimiz Islom Karimov e'tiborini ma'naviyatimiz, madaniyatimiz, uzoq asrlik ma'rifatchiligimiz tarixini o'rganishga qaratdi va shu yo'l bilan o'zlikni anglash, dunyo hamjamiyatida o'z o'rnimizni topish lozimligini takror va takror ta'kidladi. Milliy istiqlol mafkurasining poydevori qadim ma'naviyatimiz va milliy an'analarimiz ekanligini uqdirdi. Milliy istiqlol g'oyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanishini ta'kidladi¹. Bu esa ma'naviyatning asoslaridan bo'lgan adabiyotimizning barcha jihatlarini yangicha ruhda o'rganishga hamda tahlil va talqin etishga keng yo'l ochib berdi. O'zbek adabiyotshunosligi oldiga ham muhim talablarni qo'ydi. Biz ushbu bitiruv-malakaviy ishimizda o'rganayotgan mavzu ham shu jihatlardan dolzarbdir. Biz bilamizki, badiiy asar juda keng qamrovli poetik qurilmadir. Uning har bir qismi shu butunlikni mantiqan ta'minlashi lozim.

¹ Karimov I.A O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: "O'zbekiston" 2012-y, 39-bet.

Xuddi shunday asar sarlavhasi va epigrafi talqini masalasi ham bugungi kunda yangicha nuqtai-nazar bilan o'rganilishi zarur bo'lgan muammolardandir.

Mavzuning yangiligi va ahamiyati. Badiiy asarda sarlavha va epigraf muammosi o'zbek adabiyotshunosligida ma'lum ma'noda tadqiq etilgan. Sarlavha, epigraf badiiy asarning bir qaraganda, kichik elementidek taassurot qoldirsa ham, uning asar kompozitsiyasi, tarkibi va qurilishida asosiy rol o'ynaydi. Bu masala adabiyotshunoslikka oid asarlarda alohida tarzda u yoki bu ma'nolarda qisqacha to'xtalib o'tilganligini ko'rdik. Badiiy asar sarlavhasi, epigrafi alohida tadqiqot obekti sifatida taxlil etilmaganligi bizning ushbu bitiruv-malakaviy ishimizning ilmiy yangiligini isbot etadi. Ma'lumki, sarlavha masalasi badiiy asarning bosh masalalaridan bo'lib, qadimgi adabiy yodgorliklardan tortib, bugungi kunlargacha badiiy asarning asosiy ma'no va mazmun markazi bo'lib xizmat etib kelmoqda. Biz ushbu ishimizda bu muammoning barcha qirralarini, o'tmishini qamrab olish imkoniyati yo'qligini his etdik. Shu bois, ishimizda ko'proq yangi davr o'zbek adabiyoti na'munalari misolida fikrimizni oydinlashtirishga harakat qildik. Sarlavha va epigrafning badiiy asar mazmun mohiyati va g'oyaviy-badiiy olamini ochib berishdagi o'rni beqiyos darajada katta ekanligi ishimizning har jihatdan ahamiyatini ham ko'rsatib beradi. Ma'lumki, barcha tur va janrlardagi asarlar muayyan sarlavha va unga yuklangan mazmun bilan bog'liqdir. Shunday ekan, ushbu ishimizning yangiligi ham o'z-o'zidan namoyon bo'ladi.

Mavzuning o'rganilishi va ilmiy qimmati. Badiiy asarda va umuman, har qanday adabiy-ma'daniy yodgorlikda sarlavha masalasi shu badiiy matnning asosini tashkil qiladi. Xalq og'zaki ijodi na'munalarini olib qaraymizmi, diniy-ilohiy mazmundagi yodgorliklarga nazar tashlaymizmi yoki uzoq asrlik adabiyotimiz tarixi sahifalariga e'tibor qaratamizmi, yangi davr adabiy olamiga ko'z tashlaymizmi barchasida ushbu masalaning muhimligi namoyon bo'lib turadi. Shuni aytib o'tish kerakki, adabiyotning badiiyati, an'ana va manbalari qaysi yo'sinda kechgan bo'lsa, badiiy asarlarning sarlavhasida ham shu holat ko'zga yaqqol tashlanadi. Misol uchun olaylik, o'zbek adabiyoti tarixi na'munalarini ko'zdan kechirsak, unga asos bo'lgan islomiy-ma'rifiy yo'nalishlarning o'z

ta'sirini ko'rsatganligi, ular sarlavhasidanoq ko'zga yaqqol tashlanadi. XI – XIX asrlargacha bo'lgan o'zbek adabiyoti na'munalarida sarlavha asosan, shu ruhda tanlanganligini ko'ramiz hamda bu adabiy yodnomalar sarlavhalari mavjud asarlarning mazmun mohiyatini ham o'zida aks ettirganligining guvohi bo'lamiz. Yusuf Xos Xojib «Qutadg'u bilig» (Baxtga eltuvchi ilm), Adib Axmad Yugnakiy «Hibbatul Haqoyiq» (Haqiqatlar armug'oni), Alisher Navoiy «Xazoyin-ul ma'oni» (Ma'nolar xazinasi), «Xamsa» dostonlari, «Lison ut-tayir» (Qush tili) va boshqa ko'plab asarlarni aytib o'tishimiz mumkin. Bu holat milliy uyg'onish va jadidchilik davri adabiyoti misolida ham yoyingki, yangi davr o'zbek adabiyoti timsolida ham ko'rinadi. Shuni ham alohida aytib o'tishimiz lozimki, sobiq sho'ro davri mafkurasi ham ma'lum ma'nolarda bu davrlarda yaratilgan asarlar sarlavhasida ham o'z aksini topgan. Ikkinchidan, sarlavha va epigraf tanlash badiiy adabiyotning tur va janrlar tabiyatiga ham bog'liq holda kechadi. Epik, lirik, drammatik tur va ularga kiruvchi ko'plab janrlarda ushbu holatni kuzatishimiz mumkin. Har qanday badiiy asarni tahlil etar ekanmiz shu asarning mazmun mohiyati avvalo uning sarlavhasida mujassamlashganligi haqiqatdir. Shu bois, badiiy asarlarni o'rganishda uning sarlavhasiga diqqat e'tiborni jalb etish zarurligi ishimizning ilmiy-nazariy qimmatini ham belgilab beradi.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, nafaqat, badiiy asar, balki, har bir predmet, narsa, buyum qolaversa, har bir insonga qo'yilgan ism ham uning mohiyatini belgilab berishi ko'zda tutiladi. Qadim yunon xalq maqollaridan birida «Ism - qismatdir» degan ibora ham bekorga ishlatilmagan. Diniy – ruhoni adabiyotlarda ham ta'lim tarbiyaning dastlabki bosqichi ismlar va nomlarni o'rgatishdan boshlanishi haqidagi qarashlar ham bejiz emas. Shu tufayli, badiiy asarni o'rganayotganimizda uning sarlavhasida yashiringan ma'nolarni ilg'ab olish, bu ma'nolarning asar mohiyatini ochishdagi o'rniga baho berish shartdir. Ishimizda sarlavha va epigraf masalasi tahlilini o'rganishimizdan maqsad badiiy asar poetik olamini yanada chuqurroq idrok etish, tushunish va tushuntirishdan iboratdir. Sarlavha barcha asarlarga xos xususiyatdir. Epigraf esa ko'proq ijodkorning e'tibori bilan amalga oshiriladi. Shu bois, bu masalalarni o'zaro uyg'unlikda tahlil etishga harakat

qildik. Biz bitiruv-malakaviy ishimizda mavzuni kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar tarzida o'rganib chiqdik. Mazkur ishimizda adabiyotni keng ko'lamli va chuqurroq o'rganishda sarlavha va epigraf elementlarining o'rnini baholashga imkon qadar harakat qildik.

Ishimizning obekti sifatida ko'proq yangi davr o'zbek adabiyoti na'munalariga murojaat etdik. Shuningdek, bu boradagi adabiyotshunosligimizda aytilgan fikr va mulohazalarga tayandik. Tadqiqod natijalari shuni ko'rsatdiki, sarlavha va epigraf badiiy asar mazmun mohiyatini ochib beruvchi asosiy kompozitsion vositalaridan sanaladi.

BIRINCHI BOB

BADIIY ASAR KOMPOZITSIYASIDA SARLAVHANING O'RNI

Mustaqillik tufayli ijtimoiy hayotning barcha javhalarida bo'lgani singari adabiy jarayonni tahlil etish borasida ham anchagina katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Istiqlool davri adabiyotshunosligi badiiy adabiyotni san'at asari sifatida o'rganishga tamon dadil qadam qo'ydi. Badiiy adabiyotni bir tomonlama, ya'ni mafkura quroliga aylantirgan sobiq totalitar tuzum yaxliil prinsiplari ortga chekindi. Uzoq asrlik va boy an'analarga ega bo'lgan o'zbek adabiyoti o'z milliy tabiati asosida o'rganilishga keng imkoniyatlar yaratildi. Adabiy me'rosimizning keng ko'lamli tadqiq etilishi va uning merosxo'ri bo'lgan yangi davr o'zbek adabiyotini chuqur o'rganish borasida ham jiddiy yutuqlar qo'lga kiritildi. Badiiy adabiyotni yuksak insoniy tuyg'ular ifodachisi, estetik qarashlar jarchisi sifatida talqin etilishi natijasida adabiyotshunosligimizda muhim ilmiy natijalar qo'lga kiritildi.

Ma'lumki, o'zbek adabiyoti jahon adabiy-estetik tafakkurining ajralmas bir qismi sifatida barcha davrlarda o'ziga xos salmoqli na'munalari bilan e'tiborni o'ziga jalb etib kelgan. Bugungi adabiyotshunoslik badiiy adabiyotning ma'no va mazmunlar olamini haqqoniy, xolis baholashda jahon adabiyotshunosligi yutuqlariga tayangan holda milliy zaminda tahlil etishga harakat qilmoqda. Biz ushbu bitiruv-malakaviy ishimizda adabiyotshunoslik e'tiboridan chetda qolib kelayotgan, alohida tadqiqod obekti sifatida o'rganilmagan mavzu, ya'ni badiiy asarda sarlavha va epigraf masalalarini tahlil etishga baholi qudrat harakat qilamiz. Albatta, badiiy asar sarlavhasi yoki asarga epigraf tanlash masalalari adabiyotshunoslik ilmida u yoki bu jihatlardan ko'rib o'tilgan bo'lsa-da, bu muammo yaxlid ilmiy yo'nalish sifatida tadqiq etilmaganligi bizni bu mavzuni o'rganishga undadi. Adabiyotshunoslikka doir kitoblarda, shuningdek poetika masalalariga bag'ishlangan lug'atlarda epigraf, sarlavha haqida qisqacha bo'lsa-da, ma'lumotlar ko'zga tashlanadi. Masalan, N.Hotamov, B. Sarimsoqovlarning «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati»da epigraf haqida shunday deyiladi: «Epigraf – grekcha yozuv so'zidan olingan. Qadimgi Gretsiyada qabr toshlariga yozilgan she'rlarni shu termin bilan ifodalaganlar.

Keyinchalik, biror asar yoki xalq og'zaki ijodidan olingan maqol, hikmatli so'z, parcha yoki iboraning boshqa bir asar, yoxud uning biror qismi boshida keltirilishiga nisbatan epigraf termini ishlatila boshlandi. Epigraf asarning mazmuniga mos kelishi va uni ifodalab berishi lozim. Epigrafning tarixiy ildizlari, turlari va taraqqiyot bosqichlari bilan maxsus fan – Epigrafika shug'ullanadi. Epigraf o'zbek adabiyotida keng ishlatiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning «Be'mor» hikoyasida «Osmon yiroq, yer qattiq» maqoli epigraf sifatida qo'llangan. Shuningdek, adabiyotshunos T. Boboevning «Adabiyotshunoslik asoslari» darsligida epigraf haqida quyidagi fikrlarni uchratishimiz mumkin: «Epigraf – yunoncha yozuv » - adabiy asap sarlavhasidan so'ng yoki uning qismi yoxud bobining boshlanishida yozib qo'yiladigan ko'chirma, ibora, maqol, matal, xalq qo'shig'idan parcha va boshqalar. Epigraf, odatda, asarda, yoxud uning biror qismida, bobida ifodalanadigan mazmunga aloqador bo'ladi, unga g'oyaviy yo'nalish beradi. Epigraf qisqa, sodda ammo aforistik ruhda bo'ladi². U asar g'oyasini ishonarli qilib ochishda muallifga qo'l keladi. Epigraf o'z vazifasiga ko'ra asar nomi (sarlavhasi)ga o'xshab ketadi, ularning har ikkalasi ham asarga g'oyaviy-emotsional ruh baxsh etadi, asar mavzui va g'oyasini aniqlashga ko'mak beradi. Masalan, Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida «Otning o'limi – itning bayrami» maqoli epigraf qilib keltirilgan. Bu maqol asar g'oyaviy yo'nalishini aniqlaydi – kambag'al dehqon Qobil bobo o'g'irlangan ola ho'kkizini topishda ellikboshi, amin, pristavlardan madad so'raganda, amaldorlar, birinchidan, cholning «terisigacha shilib oladilar», ikkinchidan, cholning soddaligi ustidan mazax qilib kuladilar (cholga yordam berishni xayollariga ham keltirmaydilar). «Otning o'limi» (Qobil boboning fojiasi), «itning bayrami» (amaldorlarning chol ustidan kulishlari – uni battar chohga tortishlari) – mana shundan iborat. Shuningdek, «Be'mor»da «Osmon yiroq, yer qattiq», «To'yda aza»da, «Zo'ri behuda miyon meshikanad», «Anor»da:

Uylar to'la non, och – nahorim bolam,

² Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent: "O'zbekiston", 2002-y, 145-146-betlar.

Ariqlar to'la suv, tashnai zorim bolam»,

«Kecha va kunduz»da «Hamal keldi, amal keldi», «To'y»da «Nahotki kishi shunday xushchaqchaq olamdan ketsa». (Lermontov), «Yillar»da «O'tdi umrim voh darig'....», «Qizlar»da «Toychalar kishnashadi, ot bo'ldim deb, kelinlar yig'lashadi, yot bo'ldim deb», «Bashorat»da «Ola qarg'a qag' etadi, o'z vaqtini chog' etadi», «Yorqinoy»da

Vodiyi vahdat haqiqatda maqomi ishqdir,

Kim mushaxxas o'lmas ul vodiya sultondin gado (Fuzuliy).

kabi epigraflar mag'zi chaqib ko'rilsa, ularda olam-olam ma'no borligi bilinadi va ular, birinchi navbatda, asarlar g'oyasi bilan uzviy bog'liqligi uchun kitobxon yodida mustahkam saqlanib qoladilar».

Bundan ko'rinadiki, o'rinli ishlatilgan epigraf asar kompozitsiyasida muhim ahamiyat kasb etar ekan. Ammo bundan har bir asarda epigraf bo'lishini talab qilish noto'g'ridir. Chunki epigraf ishlatish yoki ishlatmaslik yozuvchining niyatiga, xohishiga, uslubiga bog'liq erkin ijodiy ishdir. Xuddi shuningdek, ushbu darslikda «asar sarlavhasi – badiiy asar arxitektonikasida tashkil qiluvchilik rolini o'ynaydi. Ko'p hollarda asar sarlavhasi uning mazmuni bilan uzviy bog'liq bo'ladi. «Quyosh qoraymas» Oybek romanining ramziy-falsafiy nomi. Bu nomda Vatanimiz kishilarining fashist bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi – adolatli kurash, adolat esa hamisha tanta'na qiladi: quyosh nurlarini hech qanday kuch to'sa olmaganidek, xalqimizning ona Vatannig muqaddas tuprog'ini yovlardan tozalash yo'lidagi harakatini dushmanning har qanday qarshiligi ham to'sa olmaydi, xalqimiz, albatta, g'alaba qiladi, degan falsafiy fikrga ishora borki, bu fikr roman to'qimasiga chuqur singdirib yuborilgan.

Shuningdek, «Tirilish» (L.N. Tolstoy), «Qutlug' qon» (Oybek), «Sinchalak» (A. Qaxxor), «Chinor» (A.Muxtor), «Imon» (I.Sulton), «Parvona» (Uyg'un) kabi asarlarning nomlari badiiy g'oya bilan uzviy bog'liq bo'lib, muayyan asarlar bo'laklarini bir-biriga bog'lashda muhim rol o'ynaganligini payqash qiyin emas.

Ba'zi asar nomlarida qahramonlarga urg'u beriladi, syujet yo'nalishi shu obrazlar bilan bog'liq ekanligiga ishora qilinadi. Bunday holatda ham asar nomi

kompozitsiya vazifasini o'taydi. «Zaynab va Omon» (X.Olimjon), «Navoiy» (Oybek), «Mirzo Ulug'bek» (M. Shayxzoda), «Umid» (Mirmuhsin), «Jamila» (Ch.Aytmatov), «Hamza» (K.Yashin), «Nurxon», «Gulsara» (K.Yashin), «Jontemir» (Uyg'un), «Lukash botir» (N. Safarov) kabi asarlarda mana shunday kompozitsiya alomati yaqqol sezilib turadi.

Biz bilamizki, har bir asarning yozilish tarixi yoki unga qo'yilgan sarlavhasini o'ziga xos jihatlari bo'ladi. Asarlarga topib qo'yilgan ajoyib sarlavha asar badiiyatini ochib berishga qaratilishi lozim. Biz shu sarlavha orqali butun asarni mazmun-mohiyatini anglab yeta olishimiz mumkin. A.Qahhorning «O'g'ri» hikoyasining sarlavhasini o'qiganimizdanoq, gap nima haqida ketishini anglab yetamiz.

«Aniqlik va qisqalik nasrning birinchi ustunligidir. U fikrni talab etadi, busiz go'zal ifoda hech narsaga xizmat qilmaydi» ekan. Asar sarlavhasi bir yoki bir necha so'z bilan ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan mazmunni o'zida aniq jamg'arishi, nomlanishidanoq o'quvchini o'ziga jalb qilishi lozim. Bu judayam murakkab ish, ayni chog'da, rohatbaxsh hamdir».

Masalan, G'ofur G'ulomning «Vaqt» she'rining tug'ilish jarayoni haqida turli xil qiziqarli farazlar borligini o'qiganmiz. Naim Karimovning «Shoirning estetik prinsiplari» maqolasida shu haqida yozadi. Said Ahmad esa buni boshqacha tasvirlaydi. Said Ahmad «Qizil O'zbekistan» gazetasining redaktori topshirig'i bilan, G'ofur G'ulomdan she'r undirish uchun uyiga boradi. Biroq, G'ofur G'ulom shu ishni ertaga qoldirishni so'raydi, ammo, Said Ahmad ko'nmaydi. Xullas, osh bilan latifa aytishganlaridan keyin, G'ofur G'ulom yotish oldidan qo'lidagi soatini echib, shunday deydi:

« - Bo'ldi, dedi domla qayta o'rnidan turib – she'r tayyor. Komil Aliev shunday degan edi: «Sarlavhasi bilan tagiga yoziladigan o'z noming naqd bo'lsa, asaring bitdi deyaver». She'rni nomi bilan G'ofur G'ulom bitdi».

Shu bilan o'zbek adabiyotida mashhur bo'lgan she'r dunyoga keladi. Vaqt, vaqtning qadr qimmatini kashf etish uchun G'ofur G'ulom lahzaning mohiyatini tahlil qiladi.

Abdulla Qodiriyning «Toshpo'lat tajang nima deydi?» asarida muallif bosh qahramonning sarguzashtlari orqali bizni yigirmanchi yillar hayotining ziddiyatli drammatik hodisalariga, davrning o'tkir muammolariga ro'para qiladi. Asar qahramoni Toshpo'lat bolaligida yaxshi tarbiya ko'rmagan, maktabda yolchitib bilim olmagan, omadsiz, savodsiz, ma'rifatdan yiroq, hayotda yo'lini topa olmagan, omadsiz, ishsiz, biti sirka bo'lmagan shu faqirlik orqasida yomon yo'llarga kirib qolib tajanglangan chapani. U dehqonchilik qilib, «Non o'rniga kesak tishlab, yoz bo'yi suv ichib, ishlab, oyog'ida bitta chilim qovoqqa ega bo'ladi».

Xullas, u o'zi aytganidek, «Odami zot farzandining g'aribi». Abdulla Qodiriy o'zining asarlarida ana shu ezgu niyatni targ'ib qildi. Garchand, uning asarlarining voqeasi va qahramonlari Turkistondan olingan bo'lsa-da, umuminsoniy, gumanistik g'oyalarni olg'a surdi. Fozil davlat tuzumi va shaxs erki masalasi Sharq allomalarining qalbini qanchalik band qilgan bo'lsa, jahonning barcha so'z san'atkorlarining ham diqqat markazida turdi. «Mehrobdan chayon» asarining uzoq-uzoqlarga parvoz qilishining boisi shundaki, Solih Maxdum o'zbek tuprog'ida tug'ilgan xasis, ammo, uning xasisligining namoyon bo'lishi – xalq orasida «Zarbulmasal» bo'lishi milliy turmush tarzi bilan jips bog'liq bo'lsa-da, ammo mohiyati jihatidan umuminsoniydir, mushtarakdir (hamma kiyimga yamoq tushgan bir choponni sakkiz yilda ham tashlamaydi, bir oyda bir kir yuvdiradi, uyda asosan, suyuq ovqat qildiradi, sholg'om, lavlagi ishlatadi, hatto kuyov qilaman deb yurgan Anvar bosh mirzalikka tayinlanganda uni qutlagani keluvchilar uchun yumshoq non olishga ham og'rinadi, xon Ra'noni xotinlikka so'raganda Anvardan voz kechib, unga rozilik beradi). Toshpo'lat tajang obrazida ham shunday mushtaraklik bor. «Mushtum» jurnalida «Toshpo'lat tajang nima deydi?» hikoyasi bilan Toshpo'lat tajangning rasmi ham beriladi. Farg'ona gazetasida bosilgan bir maqolada bu rasm «Mulla Nasriddin» jurnalidagi rasmning o'zi demak, «Mushtum» o'g'irlik qilgan deb yoziladi. Shu munosabat bilan Abdulla Qodiriy javob berib bunday deydi: «Kavkaz bilan Turkiston tiplarda va urf-odatlariga ko'ra bir-biriga juda yaqindir. Buni yaxshi bilish kerak. Shuning

uchun Turkistonda tug'ilgan o'zingizning tog'ongiz «Toshpo'lat tajang» dan tonib, uni kavkazlik deyishingiz qalandarona bir so'zdir. Ishonmasangiz «tajang» tog'angizning so'zlariga, qiliqlariga, madaniyat dunyosiga bo'lgan pisandiga bir qarang. Bu tip yolg'iz Turkistonning o'zigagina emas, Turkistonning har bir burchagida ham bor va shuning uchun bir chapaningiz haqidagi sof bir karrikaturani o'z molimiz deymiz. Sizning o'g'ri ushlash nuqtangizga qo'shilishimiz ham bu tip kavkaz turklarida ham bor ekan» deyishdilar.

Ko'pgina asarlarning nomlari ulardagi bosh qahramonlarning ismlari bilan ataladi. «Zaynab va Omon» (H. Olimjon), «Navoiy» (Oybek), «Mirzo Ulug'bek» (M. Shayxzoda), «Amir Temur» (Olimjon Bo'riev), «Fotima va Zuxra» (O'. Umarbekov), «Ibn Sino» (M. Qoriev), «Hamza» (K. Yashin) kabi asarlar buni isbotlaydi va asar syujeti bevosita shu obrazlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shu asos tufayli, bu nomlar ham aniq asar bir butunligiga hissa bo'lib qo'shiladi.

Abdulla Qahhor «Asror bobo» hikoyasini yozishda N. Gogoldan ijodiy ta'sirlangan. Negaki, Asror bobo obrazi N. Gogolning «Taras Bulba» qissasidagi bosh qahramon (Taras Bulba) obrazini eslatadi. Lekin, shu bilan birga, ularning har biri o'z milliy xarakteriga ega bo'lib, o'z davri va o'z sharoitiga xos original obrazlardir. Taras Bulba ham, Asror bob ham fidokor, vatanparvar kishilar. Biroq, Taras Bulba o'z vatanparvarligini jang maydonida, bosqinchi yovga qarshi ko'rsatsa, Asror bobo vatanparvarligini mehnat maydonida namoyish qiladi. Agar Taras Bulba o'z irodasini, vatan uchun fidokorligini hayot-mamot jangida xoinlik yo'lga o'tgan o'g'lini qatl qilish yo'li bilan ko'rsatgan bo'lsa, Asror bobo o'z fidokorligi va yuksak irodasini boshqacha yo'l bilan jangda qahramonlarcha halok bo'lgan yolg'iz o'g'lining o'limi haqidagi mash'um xabarni kampiriga bildirmasdan, musibatning butun og'irligini o'z bo'yniga olishi va kampiriga mehribonlik qilishi bilan ko'rsatadi.

Abdulla Qahhorning o'zi bu haqda fikr yuritish, «Vatan urushi yillarida chiqqan «Asror bobo» hikoyasini yozishda Taras Bulba obrazi menga ilhom berdi. Asror bobo kampiriga qalbini o'rta yutgan og'ir musibat, o'g'lining jangda halok bo'lganligini aytmay, yashirib yuradi, bu musibatning hamma dard-alamiga o'z

qalbini tutib beradi. Bunday Asror boboga Taras Bulba chiziqlaridan birini berishga uringanligimni ko'rish mumkin», - deb yozgan edi.

Abdulla Qahhor xalqning ichidagi so'zini topib aytgan, uni diliga kirib dilidagi gapini topib obrazlar yaratadi. Abdulla Qahhor o'z obrazlarining ko'pchiligiga nom qo'ymaydi: Masalan: uning «Bemor» hikoyasida Sotiboldining xotinini ismini qo'ymaydi. Bu bilan yozuvchi o'sha jamiyatning «Kasal» ekanligini tasvirlash uchun nomlamaydi. «Bemor» hikoyasida bosh qahramon Sotiboldi hisoblashib bu obraz harakter darajasida yozuvchi jamiyatdagi past tabaqa, kambag'al aholining «Qo'li kaltaligini» ko'rsatadi. Sotiboldi obrazi kambag'allarning tipiklashtirilgan obrazini yaratadi.

Abdulla Qahhor o'z hikoyalarining sarlavhasi va mavzusiga ishora qilib epigrafi tanlaydi. Masalan, uning «O'g'ri» hikoyasida epigrafi «Otning o'limi – itning bayrami» maqoli berilgan. Bu maqol asar g'oyaviy yo'nalishini aniqlaydi, kambag'al dehqon Qobil bobo o'g'irlangan ola ko'zini topishda ellikboshi, amin, pristavlardan madad so'raganda amaldorlar, birinchidan, cholning «terisigacha shilib oladilar» ikkinchidan, cholning soddaligi ustidan mazah qilib kuladilar. Bu yerda «Otning o'limi» Qobil boboning fojiasi, «Itning bayrami» esa amaldorlarning chol ustidan kulishi – uni battar chohga tortishlaridir.

Bundan tashqari «Bemor» hikoyasining epigraf «Osmon yiroq, yer qattiq». Bunda Sotiboldining nochor ahvoli xususida gap boradi. A. Qodiriy o'sha paytdagi nochor odamlarning ahvolini ko'rsatib beradi. Bunday odamlar uchun albatta «Osmon yiroqlik er ham qattqlik qiladi». Bor topgan-tutganini bemor xotiniga sarflaydi.

Abdulla Qahhorning «To'yda aza» hikoyasining epigraf «so'zi behuda miyon meshikanad» epigrafi sifatida qo'llangan bo'lsa «Anor» hikoyasida esa:

«Uylar to'la non, och-naxorim bolam,

Ariq to'la suv, tashudi zorim bolam»

She'riy jumla epigrafi sifatida qo'llangan. Bunda ham ko'rishimiz mumkinki, boylarning uylarida hamma narsa bor, hatto ariqdagi suvga ham ular hukumronlik qilishi aytish maqsadida shunday epigrafi tanlangan.

Abdulla Qahhordan yetuk yozuvchi va chuqur bilimdon siymoning qalblarini larzaga solgan har qanday mavzu uning diqqat e'tiboridan chetda qolmagan edi. Jumladan, uning 1933-yilda yozilgan «Tomoshabog'» sarlavhali bir kichik hikoyasining bir necha yirik janrdagi badiiy, butun bir asarga teng keladigan mavzuning naqadar mahorat bilan ijod etilganini eslash – bizni butun bir asar qa'riga surganiga hayron qolamiz. Hikoyacha «Tomoshabog'» deb ataladi. Tagiga «o'tmishdan» deb yozilgan. Epigraf esa «Ey bus – butun ayolati vayron o'lan vatan, har go'shasi zamonada zindan o'lan vatan» ko'rib turibsizmi: sarlavha judda oddiy tuyiladi. Biror tomosha joyi haqida deb anglashingiz mumkin. Ammo, hikoyachani o'qib, dahshatga tushasiz, mustamlakachilar boshimizga solgan ne-ne kulfatlardan biri ko'z oldimizga dahshatlari bilan namoyon bo'ladi.

Toshkentning yangi shahar qismidagi eng markaziy joyga chor Rossiyasi bosqinchilari uchun solingan dabdabali turar joy. Bunday go'zal qurilish boshqa yerda bo'lmagani uchun sodda mahalliy aholi uni «Tomoshabog'» deb bilgan bo'lsa kerak. Yonidan o'tganlar unga havas bilan qarab ketishadi. Oddiy xalq uni «Romaska» deb atagan, ya'ni Romonovlarga tegishli joy, oktyabr to'ntarishidan keyin go'yo, mustamlakalikka «Barham bergan» qizillar davrida «Romonska» pionerlar saroyi deb ataladigan bo'ldi. Ana shu saroy bo'lmasdan ilgari o'sha imorat butun shaharga dahshat, qo'rquv solib kelgan. Mustamlakachilar yerli aholi boshiga har xil arzimagan bahonalar bilan azob beraverishni odat qilib olganlar:

Abdulla Qahhor xuddi shu mavzuda «Tomoshabog'» ni ustalik bilan yoritishda g'oyat katta jasorat ko'rsatadi.

Umuman olganda, Abdulla Qahhor sarlavha va epigraf tanlash va uni to'g'ri qo'llay olish borasida o'zbek adabiyotshunosligida dastlabki o'rinlarda turadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdulla Qahhor o'z davrining mohir hikoyanavisi so'z ustasi edi. Uning hikoyalarida real, ochiq, oydin ko'rsatilar edi.

Oybekning «Navoiy» (1944) romani ham o'zbek adabiyoti tarixida faxrli o'rin tutadi. Yuzaki qaraganda, Oybek urush yillarida uzoq o'tmish mavzusida «Navoiy» romanini yaratish bilan o'sha jangavor davr talablaridan uzoqlashganday

ko'rinadi. Aslida esa bunday emas. Chunki Oybek o'tmish voqeysini aks ettirish, buyuk tarixiy shaxs Alisher Navoiy obrazini yaratish, uning vatanga va xalqqa boyigan cheksiz muhabbatini tasvirlash asosida vatanparvarlik, insonparvarlik, qahramonlik va yomonlikka nafratni targ'ib qildiki, urush davri talablariga to'la mos kelar edi.

«Navoiy» tarixiy-biografik roman janrining nodir namunasidir. Roman voqeasi 18 yoshli yigit – Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishi bilan boshlanadi va Navoiy hayotining eng samarali va eng sermazmun davrlarini qamrab oladi. Asar voqeasi Navoiyning o'limini aks ettirish bilan tugaydi. Demak, asarda Navoiy tarjimai holining asosiy bosqichlari hayot haqiqatiga mos holda yorqin tasvirlangan. Asarda Navoiyning olijanob fazilatlari, ajoyib xislatlari, vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochila boradi. Navoiy obrazi romanda el va xalq uchun qayg'uruvchi, yurtning baxt-saodati haqida jon kuydiruvchi, adolat va haqqoniyat uchun astoydil intiluvchi ulug' siymo sifatida namoyon bo'ladi.

Oybekning «Quyosh qoraymas» asari ikkinchi jahon urushi mavzusida yozilgan birinchi o'zbek romanidir. Unda jangchilarimizning vatanparvarligi, qahramonligi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, partizanlar harakati tasvirlangan. Romanning g'oyaviy mazmuni uning sarlavhasida ham o'z ifodasini topgan. Oybek romanni «Quyosh qoraymas» deb atash bilan quyosh abadiy qoraymagani singari adolat va haqqoniyat uchun jang qilayotgan xalqni yengish aslo mumkin emas, degan g'oyani obrazli ravishda ifodalagan.

Oybek romanda xalq maqoli, ibora va so'z o'yinlaridan unumli foydalangan. Shu bilan birga, yozuvchining o'zi ham xalq aforizmlari darajasida turuvchi hikmatli iboralar yaratgan. «Qo'shiq – qishda soldatning ruhi uchun gulxan», «Botirdan o'lim ham qochadi», «Tilakli yigit – qanotli yigit», «Xat yarim diydordir», «O'qsiz soldat – qilichsiz qin», «Hozir yigit husni - qahramonlik», «Do'st so'zini tashlama, tashlab boshing qashlama», «Qo'rqmas qirq yil qirg'inda yursa ham, qilich o'tmas» kabi sermazmun va obrazli jumlar fikrimiz isbotidir. «Quyosh qoraymas» romanida urush davri hayotiga xos va mos o'xshatish,

sifatlash, jonlantirish, mubolag'a, istiora singari badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanilgan³.

Oybekning «Bolalik» qissasi esdalik janrida yozilgan. Bu avtobiografik qissaning bosh qahramoni yozuvchining o'zi – Musaboy. Asarda Musaboyning tarjimai holi xalq hayoti, davr hodisalari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Qissada Musaboyning bolalik chog'larini hikoya qilish zaminida o'sha yillardagi xalq hayotining keng manzaralari chizilgan. Ana shuning uchun ham «Bolalik»ni o'qish orqali o'sha davr haqida, xalqimizning og'ir hayoti, ijtimoiy kurashi, orzu-istaklari, urf-odatlar haqida ko'p narsani bilib olish mumkin.

Fitrat o'nlab hikoyalar yozdi. Bular: «Oq mozor», «Zahroning imoni», «Zayd va Zaynab», «Qiyshiq eshon», «Qiyomat» kabi hikoyalardir. Ular orasida «Qiyomat» katta shuhrat topdi, qayta-qayta nashr qilindi, biroq, aksariyat hollarda sho'ro mafkurasiga moslab talqin etildi. Aslida, unda narigi dunyo voqealarini emas, ular vositasida bu dunyoning g'ovg'o-yu sho'rishlarini, Turkistonning oyoq-qo'lga kishan soldirgan jaholat mutasiblikni fosh etish, ular ustidan istehzo asosiy maqsad qilib olingan edi. Bosh qahramonning «Pochchamir» (Amir pochcha) deb nomlashidayoq shu ishora bor edi.

1923 - yilda yozilgan «Qiyomat» hayoliy hikoyasi adib ijodida salmoqli o'rin tutadi. Asar bir necha bor nashr etilgan. Unda Pochchamir (Ro'ziqul) boshidan kechgan sarguzashtlar, uning hayolidan o'tib, u dunyoda xilma-xil voqealarning guvohi bo'lganligi tasvirlangan. Asar syujetini nazarda tutib, uni o'zbek tilidagi ilk mistik-fantastik nasr sifatida baholash mumkin. Bundan tashqari asar tili boshdan-oyoq yumor bilan yo'g'rilgan. Adib dahshatli voqealarni komik yo'l bilan kulgili tarzda ifodalagan. Pochchamir u dunyoda ish boshqaruvchilarni laqillatadi. «Nega savob va gunohni o'lchaydigan tarozi bitta?» Uni ko'paytirish kerak, murdalar navbat kutib qoldi», - deb Munkar Nakirni garang qiladi.

«Qiyomat» asarida Fitrat ilohiy mavzuni tasvirlash, xususan, Pochchamir obrazni yaratishda barcha zamonlar uchun birdek muhim g'oyalarni o'ziga xos bir

³ Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: Sharq nashriyoti- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2002-yil, 118-119-betlar.

usul – Ezop tilida ifodalagan. Fitrat ushbu asarda majoziy til bilan o'zining istiqloq haqidagi umidlari, qalb isyonini badiiy mukammal tarzda ifodalay olgan. Asardagi bu teran ma'noni akademik Baxtiyor Nazarov sinchkovlik bilan payqab haqli ravishda quyidagilarni yozgan edi. Fitrat «Qiyomat» da u dunyo bahonasida aslida bu dunyo er yuzida, Turkistonda sho'ro tizimini o'rnatayotgan tartiblarga ishora qilayapti. Pochchamir isyoni aslida tartib-intizom o'rnatishda barcha barcha hukumlarni o'z qo'liga olgan, yakka hokimlik davo etgan imperiya timsolidagi qudratli kuchga ega bo'lgan, zo'ravonlikka, isyon va shunga da'vatdir. Qahramonning hech bo'lmasa ismiga, ismining ma'nosiga e'tibor bering. Har bir narsada etti o'ylab ish tutadigan Fitrat o'z qahramonini shunchaki, Ro'ziqul deb atab qo'ya qolgan emas. Bu esa imperiya keltirgan, sho'ro keltirgan hayotning, tartibning, shu kunning qo'li demakdir. Ro'ziqulning u dunyodagi harakatlari aslida, shu hayot, shu tartib, shu kunga qaratilgan isyondir. «Qiyomat» - badiiy jihatdan ham puxta. Yozuvchi asarda Ezop tilining piching, kinoya, qochirim singari vositalaridan ustalik bilan foydalangan. Fitrat asarlarining g'oyaviy-badiiy saviyasi va tarbiyaviy-estetik ahamiyati kattadir. Uning ijodi o'zbek adabiyotining jiddiy yutug'i. Yozuvchi asarlari adabiyotimiz oltin xazinasidan o'ziga munosib o'rin egallagan.

Said Ahmadning «Rostgo'y posbon» hikoyasida sho'ro tuzumining kirdikorlari bir posbon tilidan ochib tashlanadi va yozuvchi hikoyaga satirik ruh beradi. O'zligini, hatto ismini yo'qotgan yurtdoshlarimizga nisbatan nafrat uyg'otadi. Masalan, Kogon Ovchiev Moskvaga borgach «Kogonovich» bo'lgani, yoki Negmatxon Buxoriy «Nikolay Buxorin» deyilishi bilan xoyinlarga nisbatan berilgan hukm edi.

«Sarob» hikoyasi mavzusi asar epigrafidayoq o'z mohiyatini ko'rsatadi. Ya'ni hikoya epigrafi qilib «Ota qarg'ishi» misoli o'q, u oxiratda emas, shu dunyoning o'zida nishonga tegadi» jumlasini olinadi. Hikoyada fojea voqea o'g'il bilan ota orasidagi mudhish munosabatlar bu yorug' dunyoning naqd do'zaxi ichida mustabid tuzum qurbonlari mahbuslar jam bo'lgan jezqozon lagerlaridan birida o'z intihosiga etadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir asar uchun tanlangan sarlavha uning mavzusi, g'oyasi, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan dardlaridan kelib chiqib qo'yiladi. Yuqorida bir qator asarlarning sarlavhasi mavzusi, asarlarning yaratilish tarixiga e'tibor qaratdik. Shuni aytish kerakki, o'zbek adabiyotida salmoqli asarlar o'z badiiy ruhini yo'qotmay kelyapti. Biroq, ular orasida unga qo'yilgan nomi bilan asar mazmun-mohiyatini to'liq ochib berish bilan birga umumadabiy jarayonda katta shuhrat qozonib kelayotgan asarlarni ham ta'kidlab o'tishimiz lozim.

IKKINCHI BOB

ASAR SARLAVHASI – MA'NO IFODALOVCHI MARKAZ

Abdulla Qodiriyning quyidagi sarlavhalarida “Millatimga”, “Ahvolimiz” she’rlari, “Baxtsiz kuyov” dramasi, “Juvonboz” hikoyasi chiqdi. Bu asarlar Qodiriyning ijodidagi dastlabki izlanishlar bo’lib, ular o’sha davrning taraqqiyparvar harakati – jadidchilik g’oyalari bilan sug’orilgan, jadid adabiyoti ta’siri ostida yozilgan edi. Bu asarlarda Qodiriy qoloq odatlarni tanqid ostiga oladi, xalqni o’zligini anglashga, yangilikka da’vat etadi.

Yozuvchining “Juvonboz” asari bevosita Behbudiyning “Padarkush” dramasiga taqlidan yozilgan va hikoya sarlavhasi uning mazmunini ifodalab kelgan. Hikoyada o’qishni tashlab buzuv, shaltoq yo’llarga kirib ketgan boyvachcha otasining mol-mulkini sovradi, sindiradi; ota-onani dog’da qoldirib, oxiri jinoyatga qo’l uradi, qamaladi. “Baxtsiz kuyov”da esa, muallif qoloq odatlardan biri – hashamatli to’y ortiqcha sarf-xarajatlar va ularning ko’ngilsiz oqibatlari masalasini ko’taradi. Amakisining maslahati bilan Solih ismli etim yigit katta qarz ko’tarib dabdabali to’y qilib, boy xonadon qiziga uylanadi. Vaqtida qarzini uzolmay garovga qo’yilgan hovli-joyidan ajralish oldida sharmandalikdan o’zini-o’zi o’ldiradi.

Qodiriy 1919-1925-yillar orasida matbuotda yuzlab sarlavhalardagi maqola, hajviyalari bilan qatnashadi. Bu asarlarni u har xil – Qodiriy, Julqunboy, Kalvak Mahzum, Toshpo’lat, Ovsar, Dumbul, Shig’oy degan imzo-taxalluslar bilan e’lon qilgan va bundagi sarlavhalar publitsistik asar mazmunini ifodlaganligini ko’ramiz. Xuddi shunday Cho’lponning sarlavha tanlash mahorati ham o’ziga xosdir. Cho’lpon 20-yillarning o’rtalarida ham she’riy, ham nasriy, ham drammatik ijod bilan faol shug’ullandi. “Buloqlar” (1922), “Uyg’onish” (1923), “Tong sirlari” (1926) she’riy to’plamlarini, “Oydin kechalarda”, “Qor qo’ynida lola”, “Novvoy qiz”, “Oq podshoning in’omi” singari o’nga yaqin hikoyalarini, qator maqolalarini e’lon qildi. Ammo, 30-yillarda avj olgan tanqid va tahdid sharoitida uning asarlari bosilmay qoldi. Shundan keyin Cho’lpon ko’proq badiiy tarjima bilan shug’ullanishga majbur bo’ldi.

Shekspirning “Hamlet”, Pushkinning “Boris Godunov” va “Dubrovskiy”, Gogolning “Tergovchi”, Frankoning “Feruza”, Gorkiyning “Ona”, Andreyvning “Osilgan eti kishining hikoyasi” va boshqa ko’plab asarlarni o’zbek tiliga tarjima qilib, zamonaviy o’zbek tarjima maktabiga asos soldi.

Shu bilan birga, u 30- yillarda “Kecha va kunduz” dilogiyasi, “Soz” she’rlar to’plamini chop etdi.

Cho’lponning adabiy merosida “Kecha va kunduz” romanidan tashqari, yana bir necha hikoyalari ham borki, ular nafaqat , g’oyaviy mazmuni, balki, badiiy fazilatlari bilan hamda asarga tanlangan sarlavhalarining chuqur falsafiy mazmunga ega ekanligi bilan ham diqqat-e’tiborga sazovordir. Shunday hikoyalardan biri “Oydin kechalar” deb ataladi. 1922-yilda yozilgan bu hikoyada Cho’lpon ijodining yana bir asosiy mavzularidan biri – xotin-qizlar masalasi ko’tarilgan. Hikoyada sarlavha asar g’oyasini ochib berishga xizmat qilgan va ramziy ma’nolar ifodalab kelgan.

Hikoya shunday tasvir bilan boshlanadi:

“Zaynab kampir bir narsadan cho’chib uyg’ondi. Oppoq oydin, oy kampir yotgan so’richaning qoq o’rtasidan unda-munda bitta-yarimta uchragan oq bulutlarni yorib, shoshib o’tib borar edi.

Kampir u yog’, bu yog’iga yaxshilab qarab, oydinda hech bir qora-mora uchratmagandan keyin yana bolishga boshini qo’ydi...”

Bunday muqaddima so’zlardan keyin kitobxon Zaynab kampirni hikoyaning bosh qahramoni, deb o’ylashi va uning xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatishi tabiiy. Yozuvchi ham kitobxonda uyg’ongan ana shu taassurotni xuddi sezgandek, kampirning xayollarini tortgan “pilta savat, ko’rpa qavuq ipdan tortib, bu yil pilladan chiqadigan ipakkacha” – hammasini erinmay tasvirlaydi. So’ng kampirning arang uyquga ketgani va ko’p o’tmay, uyqu aralash yig’i tovushini eshitganini aytadi.

Xuddi shu yerdan boshlab hikoyaning tuguni boshlanadi.

“Bu kim? Kechalari uxlamasdan yig’lab chiqquchi kim? Hamma tinch va rohat uyquga tolga bir zamonda qalbini yaralab yig’laguchi qanday baxtsizdir?...”

Kampir yig'layotgan ayolni Xadicha otinning kelini desa, bugun uning dugonalari kelib, "ikki xuftongacha" o'yin-kulgu qilishdi. Balki qo'shnining kelinidir...

"Mana, kampirning o'z kelini, uy-joyi, kiyim-kechagi – hamma narsasi tayyor... Novdadek kuyov yonida..."

Kampir shunday xayollar bilan yig'i kelgan tomonga asta borib, ne ko'zlar bilan ko'rsinki, yig'layotgan ayol o'zining kelini edi.

Cho'lpon shu lahzaga qadar voqeani tabiat manzaralarini tasvirlash va kampirning xayollarini jonlantirish orqali ochayotgan edi. Endi qaynona bilan kelin yuzma-yuz kelganlarida, hikoyaga o'z-o'zidan savol-javob usuli kirib keladi:

“ – ...Aylanay, bolam, Qodirjon qani?

– Qodirjonni so'ramang, onajon...Mana, kelin bo'lib kelganimga bir yarim oydan oshgan bo'lsa, shu bir yarim oyning ichida ikki kechagina birga bo'ldik... Boshqa kunlarda har kecha kuta-kuta tong ottirib yuboraman. Shuncha kun chidab kelib-kelib, mana bu kun o'z qadrimga o'zim yig'lab yubordim. Qanday qilay? Men odam emasmi?"

Vaziyatni tushungan kampir nima deyishini ham bilmaydi.

“– Otasi ham shundoq edi, qizim”.

Kampirning qarigan,qurigan ko'zlariga yiroq-yiroq erlardan ikki tomchi keladi. Butun tanini, butun a'zolarini bosib, ezib, sidirib kelgan shu ikki tomchi yoshini engi bilan artgandan keyin shunday deydi kampir.

Xo'sh, Qodirjonning otasi nega uyga kech qaytgan? Qodirjonning o'zi-chi? Ular qanday tashvishlar bilan band? Turmushning qaysi echilmas tugunlari tufayli ular oilalari bag'rida yashamaydilar?.. Bunday savollarga shu payt mast-alast holda uyga kirib kelib, obrezga yiqilgan Qodirjonning holati va “Gde, gde maya Anna, gde maya Annushka?” degan telba-teskari ashulasi javob beradi.

“Qizil shohi ko'ylak, qopqora sochlari yerda sudralgan” iffatning, nafosatning, mehriqiyoning qadrini oyoqosti qilib, otasining iflos odatini davom ettirgan Qodirjon hikoya xotimasida razil va pastkash bir inson sifatida gavdalansa, o'n gulidan bir guli ham ochilmagan kelin go'zallik va ezgulikning xorlangan

ma'budasi o'laroq ko'rinadi. Yo'q, u razillik va pastkashlik oldida mag'rur qoya singari qad ko'tarmaydi. Balki razillikdan ozor chekayotgan, razillikka qarshi kurashga tayyor bo'lmagan, shuning uchun ham mehr va madadga, ko'makka muhtoj ayol sifatida e'tiborimizni tortadi.

Cho'lponning bu hikoyasida biz ikki holatni ko'ramiz. Cho'lpon xotin-qizlarga munosabatning kirib kelishi yaxshi bo'lmagani, ular haq-huquqining kamsitilgani uchun jamiyat e'tiborini ayollar taqdiriga qaratmoqchi bo'lgan. Ikkinchidan, mustamlakachilik davrining boshlanishi bilan bizga ichkilikbozlik, axloqsizlik singari illatlar natijasida xotin-qizlarni kamsitish yanada avjiga chiqqan.

Cho'lpon "Oydin kechalarda" hikoyasida ana shu illatlarni bartaraf etish, o'zbek xotin-qizlariga xos vafo, iffat, go'zallik va ruhiy boylikning qadriga yetish hamda ularga bo'lgan munosabatni keskin o'zgartirish g'oyasini ilgari suradi. Hikoya hajm nuqtayi nazaridan kichik bo'lishiga qaramay, yozuvchi unda Zaynab kampirning ham, kelinning ham ruhiy holatini katta mahorat bilan ochgan. Badiiy tafsillarning ko'pligi va aniqligi hikoyada hayot haqiqatining yorqin va haqqoniy tasvir etilishiga katta imkoniyat yaratgan. Umuman, muallif bu hikoyasi bilan kelajakda katta epik asar yozish darajasiga yaqinlashib borayotganini namoyish qilgan.

Cho'lponning dramaturgiya sohasidagi ilk asarlari 20-yillar arafasida maydonga kelgan bo'lsa-da, ular shuningdek, 1920-yilda yozilgan "Yorqinoy" dramasi ham kichik sahna asarlari edi. Shuning uchun ham Moskvadagi o'zbek drama studiyasida sahnalashtirish uchun mahalliy mavzudagi asarlarga ehtiyoj tug'ilganidan Cho'lpon mazkur pyesani qayta ishlab, uni 1926-yilda kitob holida nashr etdi.

Pyesada Cho'lponning bag'ishlov so'zlari ilova etilgan: "Totli va boy tili bilan ertak aytib berib, shu asarning yozilishiga sabab bo'lgan kampir onaga hurmat bilan bag'ishlayman". Bu fikr bir tomondan epigraf xarakteriga ham egadek tuyuladi.

Bu so'zlardan ma'lum bo'lishicha, "Yorqinoy" pyesasi zaminida Cho'lponning "kampir onasi"dan eshitgan xalq ertagi yotadi. Ayrim manbalarda esa "Yorqinoy" pyesasida Andijondagi Po'latxon qo'zg'oloni bilan bo'g'liq voqealar aks ettirilgan, degan fikr ham mavjud. Bizningcha ham, Cho'lpon yoshligida "kampir onasi"dan Po'latxon qo'zg'oloni haqidagi ertaknamo voqeani eshitgan va mazkur asarni yaratishda shu ertak-voqeadan foydalangan bo'lishi mumkin.

O'lmas Botir ismli sarkardaning qarorgohida bog'bonlik qilgan Po'lat bilan uning Yorqinoy o'rtasida muhabbat shabadasi esa boshlaydi. Po'lat bu uyning oddiy xizmatkori, Yorqinoy esa xonzodalarga mos qayliq bo'lgani uchun bog'bon yigit o'z sevgisining baxtli natija bilan tugashi mumkinligiga ishonmay O'lmas Botir xonadonidan ketmoqchi bo'ladi. Shu payt Po'latni Yorqinoy bilan tanholikda uchratib qolgan Botir uni benomuslikda, ko'rmamaklikda ayblaydi. Yorqinoyni ham or-nomusni unutib, faqir bir xizmatkor bilan uchrashgani uchun o'ldirishga tayyor ekanligini aytadi. Yorqinoy esa haq yo'lida o'limga ham tayyor.

O'lmas Botir va unga o'xshash kimsalar uchun haq ikki xil bo'lgan: o'zlari uchun va o'zgalar uchun. O'zlari uchun mavjud bo'lgan haq uni o'zining yolg'iz qizini jazolashga imkon bermaydi, lekin o'zgalar uchun haq tushunchasi uni shu lahzaning o'zida Po'latni qatl etish uchun yo'l ochadi. Ana shunday e'tiqod bilan yashagan O'lmas Botirning halol inson emas, balki zolim va qonxo'r sarkarda ekanligi ma'lum bo'ladi. U bilan ilk bor to'qnashgan va yuzma-yuz olishishga majbur bo'lgan Po'lat o'zining va otasining kim ekanligini undan so'rab bilmoqchi, o'z ajdodlarining taqdiri to'g'risida xabar topmoqchi bo'ladi. Lekin kutilmaganda bu narsa O'lmas Botirning eng dahshatli siri ekanligi oshkor bo'lib qoladi.

Agar biz Cho'lpon ijodi va ijtimoy faoliyatining negiz-negiziga nazar tashlasak, uning uchun faqat bir sajdagoh bor ekanligini ko'ramiz. Bu xalqdir. Xalq qayyerda bo'lsa, haq ham o'sha yyerda bo'ladi. Shuning uchun ham Cho'lpon otasi orzu qilgan mudarrislik kasbini tanlamay, o'zini xalq baxt-saodati yo'lida mashaqqat va azoblar bilan to'la kurashga bag'ishlagan edi. Yorqinoyning

ham “hunari go’rkovnikidan ham yomon” otasidan voz kechib, Po’lat sarkardasi bo’lgan xalq bag’riga otilishida Cho’lpon tushungan hayot ma’nosi yotadi.

Yorqinoy Po’latga ruhan yaqin bo’lgani, uni nafaqat or-nomusli, irodali yigit, balki haqiqat yo’lida kurashga tayyor bo’lgani uchun ham sevadi. Yorqinoy otasining qonli ishlaridan xabardor bo’lgach, undan voz kechib, Po’lat olib borgan kurashga qo’shiladiki, biz uning vujudida To’marisning qoni jo’sh urib turganiga ishonch hosil qilamiz.

Po’lat o’z do’stlari – qashshoq xalq vakillari bilan birga hamda yoshlikdan jangovarlik an’analari asosida tarbiya ko’rgan Yorqinoy yordamida xon qo’shinlarini engib, saltanat tepasiga keladi. Ammo Yorqinoy uchun toju taxt emas, uni sevuvchi, unga butun hayotini bag’ishlovchi Po’lat kerak edi. U Po’latning saltanat ishlaridan ortgan daqiqalarinigina huzurida, yana horigan holda o’tkazayotganini ko’rib g’azablanadi, toju taxtdan ham nafratlanib ketadi. Shunda Po’lat Yorqinoyga bunday javob beradi: “Toju taxt... toju taxtning orqasida yurt bor, el bor, xalq bor... uni o’ylash kerak... uning g’amini eyish kerak...”⁴

Bu alangali so’zlar asarda tasvirlangan voqealardan kelib chiquvchi mantiqiy xulosadir. Ko’ramizki, Cho’lpon ushbu asarida xalq – qahramonlik dostonlari an’alaridan istifoda etgan holda zamonaviy muhim g’oya bilan sug’orilgan asarni yaratgan hamda asar mazmuniga mos sarlavha tanlay bilganligini kuzatishimiz mumkin. Atoqli adib Oybek ijodiga nazar tashlasak, uning asarga sarlavha tanlashdagi mahorati ko’zga yaqqol tashlanadi. Oybekning “Tuyg’ular”, (1926), “Ko’ngil naylari”(1929), “Mash’ala” (1932), “Baxtigul va Sog’indiq”(1933) she’riy to’plamlari sarlavhasiyiq shoirning bu boradagi mahoratini belgilaydi.

Oybek adabiyotni, ijodni tanlaganida, hali 1937-yil bo’roni tinch uyquda edi. Ammo oradan ikki yil o’tar-o’tmas, bu bo’ron uyg’onib, o’zbek adabiyotining chinorlarini yulib ketdi. Bu bo’ron Oybekni ham chetlab o’tmadi. U ham institutdan, ham Yozuvchilar uyushmasidan haydaldi. Lekin tabiat unga temir iroda hadya etgan ekan, u hayotning ana shu mushkul kezzarida 1916-yil

⁴ Cho’lpon. Yana oldim sozimni. – Toshkent:Fan,1994.

qo'zg'oloniga bag'ishlangan "Qutlug' qon" romanini yozdi (1938). Roman garchand katta qiyinchilik bilan 1940-yili bosilib chiqqan bo'lsa-da, Oybek uning o'zbek adabiyotida katta voqea bo'lganligi va kitobxonlar e'tiborini qozonganligidan ilhomlanib, "Navoiy" romanini yozishga kirishdi va uni 1942-yili tugatdi. "Qutlug' qon" romani yozuvchining ma'lum darajada mafkuraga yondoshib sarlavha tanlaganligini ko'rsatsa, "Navoiy" asari esa bosh qahramon nomi bilan sarlavha qo'yilganligi misoldir.

Oybekning Navoiy haqida roman yozishi tasodifiy emas. Butun umri bo'yi mumtoz o'zbek adabiyoti va uning cho'qqisi - Alisher Navoiy ijodini sevib o'rgangan Oybek, bu romanni yozishdan oldin, ulug' shoirning hayoti va ijodiga bag'ishlangan qator ilmiy maqolalar yaratdi. 1937-yilda esa ushbu romanning o'ziga xos poetik eskizi bo'lgan "Navoiy" lirik dostonini ijod qildi. Oybekning temuriylar davri madaniyati, tarixi, xususan, Navoiy ijodini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlari uning 1943-yilda yangi tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasiga haqiqiy a'zo bo'lib saylanishiga to'la huquq berdi. Oybek o'z siymosida olim va adibni mujassamlashtirgani sababli 1945-yildan boshlab O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi rayosatining raisi (1949-yilgacha) va 1943-yildan e'tiboran respublika Fanlar akademiyasi gumanitar bo'limining boshlig'i (1951-yilgacha) lavozimlarida faol ijtimoiy, ijodiy va ilmiy faoliyat bilan shug'ullandi.

Oybek urushdan keyingi yillarda "Oltin vodiya shabadalar"(1949), "Quyosh qoraymas"(1943-1958), "Ulug' yo'l"(1967) romanlari, talaygina she'r va dostonlari yaratib bu asarlarida shu san'at asarlari mazmuniga mos sarlavhalar tanlaganligini ko'ramiz.

Oybek qalamiga mansub adabiy-badiiy asarlar, ilmiy-publitsistik maqolalar va tarjimalar adibning 20 jildlik "Mukammal asarlar to'plami"da nashr etilgan bo'lib, bu asarlarda sarlavha va epigrafdan ham mahorat bilan foydalangan. Oybek chin ma'noda serqirra iste'dod egasi. U so'z san'ati va adabiyotshunoslik ilmining barcha tur va janrlarida chuqur iz qoldirgan yozuvchidir.

Hamid Olimjon Oybek to'g'risida so'zlab, "u prozada shoiru, poeziyada prozaikdir", deb aytgan edi⁵. Mashhur shoirning qalamkash do'sti haqidagi bu so'zlarda jon bor : Oybek nasrga she'riyatning muattar nafasini olib kirdi va she'riyatni faqat nasrga xos bo'lgan tafsillar marjoni bilan boyitdi. Uning nasriy asarlaridagidek shoirona til boshqa biror yozuvchida uchramaganidek, she'riy asarlaridagi tasvir mukammalligi ham faqat uning o'ziga xos fazilatdir.

Adabiyotshunoslar Oybek ijodiga xos bo'lgan yana bir nuqtaga bir e'tiborni qaratadilar. Ularni kuzatishlariga ko'ra, Oybekning qariyb har bir yirik nasriy asari uning biror dostonidan o'sib-unib chiqqan. Chunonchi, "O'ch " hamda "Baxtigul va Sog'indiq" dostonlari "Qutlug' qon" uchun "xamirturush" bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, "Navoiy" dostoni shu nomdagi romanning, "Qizlar" dostoni esa "Oltin vodiidan shabadalar "ning eskizidir. Agar shu fikr asosida yondashsak , "Quyosh qoraymas", "Nur qidirib", "Bolalik" asarlarining ham "she'riy" ildizlari topiladi.

Oybekning bizga etib kelgan dastlabki she'ri 1922-yil'da yozilgan "Cholg'u tovushi" dir.

Yosh shoir ulg'aygani sayin uning qalbidagi tuyg'ular yanada samimiylasha, teranlasha bordi. Jonivorlarga bo'lgan bolalik mehri katta insoniy sevgi daryosiga kelib tutashdi. Uning lirik qahramoni haqiqiy muhabbat o'tida toblanib, hayotni, tabiatni, vatanni, teran his qilish darajasiga ko'tarildi. U Neva bo'ylarida, Qora dengiz sohillarida bo'lib, ulardan olgan o'chmas taassurotlarini o'z she'rlari qatida singdirdi. Lekin, bu go'zal manzillar oldida o'zbek diyorining alvon ranglari aslo xira tortmadi. Aksincha, shoir tabiatning bu so'lim manzaralari osha o'z yurtiga nazar tashlab, uning oltin tuprog'ini o'zgacha bir badiiy kuch bilan sharafladi:

Bir o'lkaki tuprog'ida oltin gullaydi,
Bir o'lkaki, qishlarida shivirlar bahor.
Bir o'lkaki, sal ko'rmasa, quyosh sog'inar...
Bir o'lkaki, g'ayratidan asabi chaqnar.
Baxt toshini chaqib bunda kuch guvillaydi.

⁵ Sharafiddinov O. Dovondagi o'ylar.- Toshkent: Manaviyat. 2004-yil, 213-237-betlar.

1936-yil yozi Oybekning she'riy ijodida yangi bir davrni ochdi. Shoir o'sha kezlarda qalamkash birodarlari bilan Toshkent atrofidagi go'zal Chimyonda yashab, A.S.Pushkinning "Evgeniy Onegin" she'riy romanini tarjima qildi. Bir tomondan, rus shoirining go'zal she'riy olami, ikkinchi tomondan, tog' qishlog'ining musaffo havosidan b nafas olish, o'zbek tabiatining fusunkor manzarasini qalb ko'zi bilan simirish Oybek bulog'ini jo'shtirib yubordi. Shu davrga oid "Chimyon daftari" turkumiga kirgan she'rlarida Oybek xassos lirik shoir sifatida qaytadan tug'ildi. Bu turkumga kirgan "Tog' sayri", "Na'matak", "Tepaga chiqamen, soyga tushamen", "Abadiyat va umr" kabi she'rlarida Oybek o'zbek tabiatining takrorlanmas she'riy obrazini yaratdi.

Urush yillarida Oybek frontga borib, o'zbek jangchilarining jangovar hayotlari bilan bevosita jang maydonida tanishdi. Uning shu yillarda yozgan va keyinchalik "Olovli yo'llar" to'plamini tashkil etgan she'rlari ma'lum ma'noda "Quyosh qoraymas" romaniga eskiz bo'lib xizmat etdi. Ehtimol, bu she'rlar o'q yomg'iri ostida yozilgani uchun u qadar badiiy yuksak emasdir. Lekin, ulardan urush yillarining nafasi aniq eshitilib turadi. Oybekning, ayniqsa, "Yig'i kelmadi sira..." she'ridagi urush haqiqati bilan sug'orilgan manzara tasviridan keyin "Kuygan uylarda uvlar Qish quyuni betinim. Tanho kezamen, Yig'lar yuragimda Vatanim" satrlarini o'qir ekansiz, go'yo she'r so'ngida portlash yuz beradigandek taassurot tug'iladi.

Oybek Navoiy hayoti va ijodi bilan 30-yillar arafasida faol qiziq boshladi. U shu yillarda Yazdiy, Koshifiy, Qazvinii, Muhammad Tolib, Abdurazzoq Samarqandiy, Vosifiy, Mirxond singari tarixchi olimlarning asarlarini qunt bilan o'rganishga kirishdi, lekin 20-yillar oxiri – 30-yillarda o'zbek adabiyotida avj olgan noto'g'ri qarashlar tufayli Oybekka ham qator ayblar qo'yildi.

Oybek, bir tomoni, o'ziga qo'yilgan aybdan xalos bo'lish uchun "Qutlug' qon" romaniga oddiy kambag'al xalq vakilini bosh qahramon sifatida tanladi. Lekin, romanda tasvir etilgan voqealar mantig'i shuni ko'rsatdiki, yo'lchilar tarixning burilish nuqtalarida xalq ommasiga rahbarlik ham qila olmaydilar, ta'sir

ham o'tkaza bilmaydilar. Qolaversa, 30-yillarda oddiy ishchilar va dehqonlar orasidan yetishib chiqqan davlat va mamlakat rahbarlari ham mustabid markaz oldida na el-yurt manfaatini, na o'zlarini himoya qila olmaydilar. Shuning uchun Oybek xalqqa ham, adabiyotga ham Navoiy singari daholar kerak, degan xulosaga keldi.

“Qutlug’ qon “ romani hali chop etilmay turib, Oybek 1940-yil 6-yanvarda “Navoiy” romani ustida ish boshlab yubordi va uni 1942-yilning qish oylarida tugatdi. Roman turli muhokamalardan o'tib, 1944-yilda nashr etildi.

O'zbek xalqi tarixida XIV-XV asrlar alohida o'rinni egallaydi. Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi bilan yangi va qudratli o'zbek davlatchiligiga asos soladi. Sharqning hozirga qadar iftixori bo'lib kelgan mahobatli inshootlar – me'moriy obidalar bino etildi. Adabiyot, san'at va fan keng taraqqiy etdi. Ana shu taraqqiyotning timsoli va natijasi sifatida Alisher Navoiyning buyuk asarlari yaratildi. Navoiy faqat buyuk shoir bo'libgina qolmay, XV asrning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy hayotiga ham katta ta'sir o'tkazdi.

Ayrim tarixchilar “Agar Husayn Boyqaro bo'lmaganida Navoiy shoir sifatida bunday yuksaklikka erishmagan bo'lardi”,- degan fikr bor. Ehtimol, bu fikrda haqiqat urug'lari yo'q emasdir. Ammo, eng muhimi shundaki, agar Navoiy bo'lmaganida Husayn Boyqaro ham davlatni va avom (xalq)ni idora etishda bu darajada muvaffaqiyat qozonmagan Husayn Boyqaroning o'zi ham, xalq ham, davlat ham allaqachonlar ichki nizolar va urushlarning qurboni bo'lgan bo'lardi. Shu so'zlarning o'zidanoq roman markazida Navoiy va Husayn Boyqaro obrazlari turishi yaqqol ko'rinib turibdi. Shubhasiz, Oybekning asosiy maqsadi Navoiyning ulug' inson, shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini yaratishdir. Oybekning talqinicha, Navoiy siymosining ana shu uchala qirrasini o'zaro birlashtirib turadigan “magnit maydoni” uning insonparvarligidir. Oybek Navoiyning insonparvar shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini yaratish uchun asarga tarixiy shaxslar obrazi bilan birga badiiy to'qima obrazlarni ham kiritgan. Bular, birinchi navbatda, Navoiyning shogirdi Sultonmurod, uning do'sti Arslonqul va uning sevgilisi Dildordir. Bular roman voqealaridan oddiy xalq vakillari sifatida ishtirok

etib Navoiyning ulug' inson, shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini ochishga ko'maklashadi. Husayn Boyqaro, Jomiy, Behzod, Nizomulmulk, Majididdin singari o'nlab qahramonlar esa Oybek asariga to'ppa-to'g'ri tarix sahifalaridan kirib kelgan. Oybek bu qahramonlar obrazini yaratishda tarix haqiqatiga suyan.

Shoir va tarjimon A.Naumovning yozishicha, Oybek u bilan suhbatida "Navoiy" romanining yaratilish tarixi haqida so'zlab, unga: "Yozishdan avval, men qahramonlarimni aniq tayin ko'rganman, ular, mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urug'dan o'sib chiqqandek edilar", - degan ekan.

Adibning bu fikri nafaqat tarixiy shaxslar, balki to'qima obrazlarga ham taalluqlidir.

O'sha suhbatdoshning yozishicha, Oybek unga yana bunday so'zlarni aytgan: "Mening stolim ustida o'rta asrlardagi Hirotning o'zim chizgan xaritasi yotardi. Men Hirotda uyqu og'ushiga ketib, Hirotda uyg'onar edim, faqat kechalarigina men yashayotgan Toshkent tushimga kirardi".

Oybekning bu so'zlari uning roman yozishga jiddiy tayyorgarlik bilan kirishgani, asar konfliktini tashkil etuvchi kuchlar va bu kuchlarning vakili bo'lgan shaxslarni aniq-tayin tasavvur etganidan guvohlik beradi.

Roman XV asrdagi Movarounnahr hayotidan olingan. Bu hol adibning shu davrdagi tarixiy sharoitni, Navoiy va Husayn Boyqaro, Navoiy va Jomiy, Navoiy va xalq o'rtasidagi munosabatlarni badiiy mujassamlashtirishni taqozo qilgan, albatta. Oybek shu mavzularni badiiy yoritish jarayonida Navoiy obrazining eng muhim qirralarini ochishga intilgan.

"Inson barcha maxluqotlarning tojidir. U sharaflı, sof, go'zal yashamog'i kerak" – Navoiyning shoir va davlat arbobi sifatida butun faoliyati shu narsani amalga oshirishga qaratilgan. Bu, Navoiy yashagan davr uchun, hatto undan keyingi davrlar uchun ham bir utopiya, xayoldir. Shu ma'noda Navoiy – xayolparast. Bunday oily g'oyalar, oily maqsadlar faqat xayolparastlarning ko'nglida, shuuridagina tug'iladi.

Husayn Boyqaro – Amir Temurning munosib avlodi. U qilich tutishni ham, mamlakatni idora qilishni ham, hatto g'azal yozishni ham yaxshi bilardi. Lekin u,

romanda aytilganidek, “qilichdan ko’ra mayga, jang maydonlaridan ko’ra chaman bog’larda tuzilgan sho’x bazmlarga moyil”. Sharq podsholariga xos bo’lgan ana shu xislat bilan xalqning “sharafli, sof, go’zal” yashashi haqidagi Navoiyning orzu-istaklari o’rtasida tubsiz bir jarlik bor.

Navoiy Husayn Boyqaroni bolalik kezlaridan boshlab yaxshi bilgani uchun unga ishonadi; uni eng odil, aql-zakovatli, davlatpanoh va xalqparvar temuriy podsholardan biri, deb biladi. Yana shuni ham yaxshi biladiki, Husayn Boyqaroning atrofida uning zaif tomonlaridan o’z maqsadlari yo’lida foydalanadigan, uni chalg’itadigan, hatto o’zi bilan podsho o’rtasidagi iliq munosabatlarga soya taashlaydigan kimsalar oz emas. Afsuski, Sulton Husayn podsho bo’lsa-da, Ollohning “xom sut ichgan” bandalaridan biri bo’lgani uchun ba’zan xushomadgo’ylar-u ig’vogarlarning zo’r mahorat bilan to’qigan to’ridan chiqqa olmaydi. Xazinani to’ldirish muammosi unga xalq dard-u tashvishlaridan ko’ra muhimroq bo’lib tuyuladi.

Navoiy saroydagi xudbin va ig’vogar kimsalar tufayli Husayn Boyqaro bilan uning farzandlari o’rtasida chiqqan nizolarni, dastavval, xalq va davlat manfaatidan kelib chiqib bartaraf etgan. U ota bilan farzand o’rtasida sulh o’rnatish uchun Badiuzzamon huzuriga borganida, shahzoda o’g’lining xoinlarcha o’ldirilgani tufayli sulhga rozi bo’lmagan.

Oybek asarda ezgulik bilan yomonlik mavzusini turli taqdirlar va voqealar tasviri orqali yoritarkan, yomonlik jazolanmay qolmaydi, degan qat’iy e’tiqodidan kelib chiqib, Majididdinning ham, Nizomulmulkning ham, To’g’onbekning ham sharmandali o’lim topganini bo’rttirib tasvirlaydi. To’g’ri, adib romandagi asosiy ijobiy qahramonlardan biri Arslonqulning ham vafotini chetlab o’tmagan. Ammo uning yurt mudofaasi paytidagi o’limi asl qahramonning, vatanparvarning o’limi bo’lsa, To’g’onbeklarning o’limi itlarning o’limi edi.

Oybek bu razil insonlar hayotining fojiali yakun topganini avlodlarga ibrat bo’lsin degan maqsadda: “Itga – it o’limi”,- degan xalq hikmatining asossiz emasligini ko’rsatish uchun atayin tasvirlangan.

Navoiy temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan tarixiy davrda yashab, ijod etdi. Temur va temuriylar tufayli laxtak-laxtak bo'lib yashayotgan turkiy qabilalar birlashib, qudratli va bepoyon o'zbek davlati vujudga keldi. Yuqorida aytib o'tilganidek, xuddi shu davrda fan, adabiyot va san'at o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Me'morchilik va hunarmandchilik mislsiz darajada taraqqiy etdi. Ammo Amir Temur vafotidan keyin qudratli o'zbek davlati parchalanib, shahzodalar o'rtasidagi urush va nizolar avj oldi. Oybek o'zbek xalqi tarixining shu murakkab va faromush davrlarini ko'z oldiga keltirgan holda Navoiy tili bilan Badiuzzamonga bunday deydi: "Men aminmanki, siz jaholat tig'ini sindirmasangiz, birodarlaringiz nomussizlik botqog'iga kun sayin chuqurroq botaversalar, bu muborak yurtda hayot o'chog'i sovirilur". Oybekning bu so'zlarni Navoiy tili bilan aytishdan yoki bu so'zlarni Navoiyga aytirishdan maqsadi o'zbek yurtining XV asrdan boshlangan va asrlar mobaynida davom etgan o'zaro urushlar natijasida XIX asrning 60-yillariga kelib, Rossiya tomonidan osongina bosib olingani va mustamlakaga aylanganini aytishdir.

Xullas, Oybek romanda Navoiy siymosi va u yashagan tarixiy davrni tasvirlash orqali zamondoshlarini o'tmishdagi achchiq voqealardan saboq, xalq va vatan manfaati yo'lida yashab, ijod qilgan ulug' siymolar va ularning ajoyib fazilatlaridan esa ibrat olishga chaqiradiki, xuddi shu narsada asarning ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati yotadi.

Shunday qilib, romanda, bir tomondan, Navoiy – Boyqaro – Jomiy – Sultonmurod – Xalq, ikkinchi tomondan esa, Arslonqul – Dildor sujet chiziqlari tasvirlanadi. Adib bu har ikkala sujet chizig'ini shunday ustalik bilan birlashtirib yuborganki, kitobxon ularni yaxlit badiiy qatlam sifatida ijro etadi.

Xullas, Oybek ulug' o'zbek shoiriga bag'ishlangan romanini shunday shohi ipaklar bilan tikkanki, bunda adibining tanlangan mavzu va qahramonga bo'lgan muhabbati yaqqol sezilib turadi.

"Biz o'z muhabbatimiz bilan narsalarga go'zallik bag'ishlaymiz", degan edi mashhur fransuz yozuvchisi Anatol Frans.

Oybek ham Navoiyga nisbatan tuygan ulkan hurmati va muhabbati bilan buyuk shoir siymosiga va umuman, u haqdagi romanga ajib bir go'zallik bag'ishladi. Xullas, Oybekning qaysi bir asariga nazar tashlamaylik, unda asar kompozitsion yaxlitligini ta'minlab turgan asoslardan biri sarlavha ekanligi ko'zga tashlanadi.

XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyondalari asar yaratishda uning butun strukturasiga, badiiyatiga chuqur e'tibor qaratgan. Asarga sarlavha tanlashda xox u lirik, xox epik, xox drammatik asar bo'lmasin shularga mos ravishda sarlavhalar tanlaganlar. Shuni aytib o'tishimiz lozimki, sarlavha yoki epigraf adabiy tur qonuniyatlariga ham, janr va shakllar xususiyatlariga ham xuddi asar mazmuni singari tegishlidir. Lirik asarlarda kechinma tarzidagi, epik asarlarda voqelik jarayonidagi, drammatik asarlarda xatt-harakat miqyosidagi sarlavhalar tanlanadi. Xususan, atoqli adib Abdulla Qahhorning sarlavha va epigraf tanlashdagi mahoratini nasriy asarlari misolida ko'rish mumkin. Adibning "Sarob romani" kitob bo'lib chiqqandan buyon to hozirga qadar uning tevaragida qizg'in bahs-munozaralar davom etib keladi. U haqda ko'pgina nohaq ta'nalar ham aytilgan. Adib tarjimayi holida shunday yozadi: „Sarob“ni to'rt yilda yozib tugatdim... Uni kitobxon xush qabul qildi, lekin ba'zan arzon shuhratparastlik, ba'zan siyosiy demagoglik, ba'zan esa to'gridan-to'g'ri jaholat natijasi bo'lgan tanqid nayza ko'tarib qarshi oldi. Bu nasrda hatto farosatli odamlarni ham chalg'itdi". Adabiy davralardan birida „Sarob“ tanqidi munosabati bilan berilgan savolga yozuvchi: „Tanqid shu paytga qadar „Sarob“dan nuqul siyosat izladi. Romandagi odamlarning dardi-dunyasini, oh-u zorini eshitadigan bir azamat topilmadi“, deya afsus bildirgan edi.

To'g'ri „Sarob“da XX asr 20-yillardagi ziddiyatli ijtimoiy-siyosiy hodisalar, mafkuraviy siyosiy kurashlar ifodasi ham bor. Davr siyosati ta'sirida, inqilobga qarshi chiqqanlarni tarafkashlik bilan qoralashga urinish ham mavjud. Biroq „Sarob“ siyosat asari emas. Romandagi asosiy narsa undagi etakchi personajdir – Saidiy bilan Nunisxon qismati, ruhiyati tahlili ifodasidir. Bu roman birinchi galda xazon bo'lgan muhabbat, uvol bo'lgan umr dostonidir. Ikki ko'rkam yoshning, bir-

biriga munosib, aslida baxt uchun tug'ilgan, ammo shaxsiyatidagi, tabiatidagi ojizliklar, qolaversa, jamiyatdagi ziddiyatlar tufayli hayotda o'z o'rnini, baxtini topolmagan navqiron avlodining achchiq fojiiy qismati, ruhiy izzatlar, oh-zorlari to'g'risidagi asardir.

Saidiy bilan Munisxon muhabbati, ular umrining zavol topishida, shubhasiz, bu yoshlar tushib qolgan sharoit, vaziyatning ziddiyatlarga to'la davrning hissasi, ta'siri katta. Ayni paytda inson bolasi nomukammal bir zot. Taqdiri azalning o'yinimi, peshonaga yozilganning ro'yobga chiqishimi yoki insoniy ojizliklar oqibatimi – ro'y bergan omadsizlik va baxtsizliklar uchun birinchi galda ularning o'zlari aybdordirlar; o'ztaqdirlariga nisbatanloqaydlik, xudbinlik, maqsad yo'lida sobitsizlik, mutelik ixtiyorni o'zgalar qo'lga topshirib, razolat bilan ittifoq tutinish, bundan ham yomoni, razolatga ko'nikish inson bolasi uchun eng og'ir gunoh, ko'rgilik, katta fojia. Asarda siz Saidiy va Munisxonning achchiq sevgi va umr savdosi, ruhiy izzatlar, dramalarga to'la qalb daftari bilan tanishib, alamli o'ylarga tolasiz. Bu jihatdan "Sarob" jahon adabiyotidagi ayni shu xil ruhiy fojialar tasvir va tahlil etilgan eng etuk asarlar bilan bir qatorda turadi.

Qaltis vaziyatlarda bosh personaj qismatida, ruhiyatida yuz bergan o'ta ziddiyatli, fojiali holatlar asarda katta mahorat bilan ko'rsatilgan. Inson bolasi uchun eng og'ir ko'rgulik fojia o'zining ko'ngil mayliga zid borish, ta'bi suymagan ishni qilish, bundan ham og'iri – jirkanch vaziyatga o'zini moslash, taqdirning shafqatsizligiga, omadsizlikka ko'nikish, omonat asoslar orqali o'zini ovutishdan iborat. Saidiy domla xonadonida ana shunday mushkulotga duch keladi: aqlga – tasavvurga sig'maydigan hol yuz beradi – sekin-asta Saidiy qalbidagi barkamol go'zal qiz Munisxon o'rnini ma'naviy qashshoq, jismoniy xasta o'ta xunuk tasqara Soraxon egallay boshlaydi. Yozuvchi bu ruhiy jarayonni butun mushkuloti, og'riqlari, azob izzatlar bilan ifoda etadi. Ayniqsa, Saidiyning ko'ngilsiz vaziyatga o'zini ko'niktirish, o'zini Soraxondan fazilatlar qidirish jarayoni tasviri yozuvchining noyob badiiy kashfiyotidir. Deyarli shunday hol Munisxonda ham yuz beradi. Munisxon ham, o'z navbatida, Saidiydek ko'rkam,

istedodli yigit qolib, vaziyat taqazosi, aka xohishi, amri bilan ma'naviy tuban ko'rimsiz, jirkanch odamga zo'rlab uzatiladi.

Yozuvchi Saidiyning ya'ni qabohatga moslashgan bandai mo'minning bu xonadondagi xorliklari, insonlik shani, nafsoniyatinig oyoq osti etilishi, tasqara xotin, bulbuli go'yo qaynona, makkor qaynota tomonidan tahqirlanishi, xasta opasi boshiga tushgan chidab bo'lmas xo'rliklar, bularning ustiga ishdagi, ijodidagi omadsizlik, tanazzul tarixini batafsil ko'rsatadi. Saidiyning o'sha kezlardagi nochor holati, istiroblari inson qalbini larzaga soladi. Yozuvchi qahramonning ayancli qismati xususida bir personaj tilidan lo'nda qilib shunday deydi: "Rahimjon hozir shalag'i chiqqan aravaday Murodxo'ja domlaning tomorqasida ag'anab yotibdi". Nihoyat, Saidiyning ichki hayoti bilan tashqi hayoti orasidagi kundan kun o'sib borayotgan qarama-qarshilik uning joniga qasdqilar darajasiga etadi; utelba holga tushadi, o'lim qidirib, bu dargohdan olib ketadi.

"Sarob" romanida zamonning o'tkinchi dovullari ta'sirida bitilgan zaif o'rinlar ham bor; biroq bu zamon bosh personajlar fojiiyaviy qismati, ruhiyati dramasi tasviri va badiiy tahlilidan kelib chiqadigan achchiq saboqlari bilan hamma davr kitobxonlari uchun qimmatlidir. "Sarob"ni o'qigan kitobxon inson farzandi hayotda hamisha mustaqil, o'z taqdiri uchun mas'ul, yuksak e'tiqod yo'lida sotib va kurashchi bo'lishi darkor, degan xulosaga keladi.

Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasi yozuvchi ijodining o'ziga xos yakuniy so'nggi cho'qqisi bo'ldi. Garchi "O'tmishdan ertaklar"dan keyin ham bir qator hikoyalar, "Muhabbat" qissasi yaratolgan, ularda qahhorona bitilgan satrlar bo'lsa-da, badiiy etuklik jihatidan "O'tmishdan ertaklar"bilan tenglasha olmaydi.

"O'tmishdan ertaklar" muallifning bolalikda ko'rgan – ko'chirganlari haqidagi avtobiografik asar, biroq o'zbek adabiyotidagi mavjud avtobiografik asarlardan, jumladan, zamondoshi Oybekning "Bolalik" qissasidan keskin farq qiladi. "Bolalik"da lirik talqin, hodisalarning shoirona idrok etish ustun. Bola obrazi Oybek qissasida birinchi planda ko'rinsa, uning ko'rgan – kechirganlari sarguzashtlari, shu kechinmalari tufayli murg'ak qalbida tug'ilgan rangba-rang

tuyg'ular ifodasi asar asosini tashkil etsa, "O'tmishdan ertaklar"da bola Abdulla obrazi orqa o'rinda turadi, u asosan "kuzatuvchi", "guvoh", "xolis hikoyachi" tarzida beriladi; yozuvchilar asosiy diqqat-e'tibori bola guvohligida oilada, oila tevaragida yuz bergan voqealarni – turmushning obektiv lavhalarini chizishga qaratilgan. Bu qissada ham yozuvchi hikoyanavisligicha qoladi, oxirgi "Qo'qon xarobalari orasida" bobini mustasno etganda, qissaning sarlavhalangan deyarli har bir bobi tugal hikoyadir, aniqrog'i ular fojiali ruhdagi voqeyiy novellalardir. Yozuvchi bu asarida real hayotda ko'rgan-kechirganlaridan "badiiy to'qima" – ijodiy fantaziyalarsiz etuk hikoya – tugal san'at asari yaratishning, real hayot "haqiqatini dildan o'tkazish, unga ko'ngildagi gaplarni singdirish"ning ajoyib namunalarini berdi. Umr bo'yi adibga tinchlik bermagan, butun ijodida temirchi o'chog'idagi cho'g'dek yallig'lanib turgan inson sha'ni, qadri bilan bog'liq alamli o'y-tuyg'ular, jaholatga qarshi isyon bu qissada adibning so'nggi faryodi-fig'oni kabi yangrardi.

Ayni shunday asarni ayni 60-yillar o'rtasida yaratilish sababi nimada? "O'tmishdan ertaklar" shunchaki adabiyotdagi an'ana ta'sirida muallifning bolalik xotiralarini qog'ozga tushirib niyatida vujudga kelganmi? Nega bu asar adabiyotdagi mavjud bolalik qissalaridan farqli o'laroq, asosan, xo'rlangan, sha'ni toptalgan kimsalar, jaholat qurbonlari haqidagi hikoyalardan iborat bo'lib chiqdi? Buning sabablarini, jumladan, yozuvchining asar yozilish oldidagi ruhiy holati, kayfiyatlaridan izlash darkor. Adibning o'sha kezlarda yondaftarda yozib qoldirgan qaydlaridan birida shu so'zlarni o'qiymiz:

"Mamlakatimizda Stalindan so'ng uzundan uzun momaqalldiroq bo'lib o'tdi. Bu momaqalldiroqni birinchi sadosi xalqlar ko'nglida juda katta orzu-umidlar uyg'otdi, xalqlar buning ketidan keladigan obirahmatni kutdi. Biroq momaqalldiroq, shamol-to'polon ko'tardi-yu obirahmatdan bir tomchi ham tommadi".

Bir joyda qo'nim topolmay, qishloqma-qishloq ko'chib, azondan kechgacha ter to'kib ishlar, tinimsiz temir taqirlatib, kichkina xonadon dasturxonini to'kin qilolmay, armonda yurgan omadsiz ota, sakkizta bolasini qora er bag'riga berib,

o'jar qaynona dag'dag'lari, darbadar hayot mashaqqatlari tufayli ozib-to'zib, "arvak" holiga tushgan mushtipart ona, shafqatsiz darbadar turmush, tahqir-u xo'rliklardan "indamas", "soqov"ga aylangan bola haqidagi lavhalar o'quvchining yurak-bag'rini ezib yuboradi. O'zgalarning hayoti-chi? Yozuvchi mehnatkashlar hayotiga oid biri biridan ayanchli, biri biridan dahshatli lavhalar keltiradi. Yo'qchili, jaholat qurboni Babarning mudhish taqdiri, ochilmasdan gulg'unchaligida xazon etilgan "hur qiz" – Sarviniso halokati – har biri dahshat, fojia! Qonsiz, shaxs halokatidan xoli, biroq gumrohlik, jaholat bilan bog'liq, bir qarashda kulgili tuyulgan hodisa ham aslida bir fojia! Chunonchi, katta shahar Qo'qondan bor-yo'g'i yigirma chaqirim naridagi qishloq ahli German bilan urush boshlanganligi xabarini ikki oydan keyin, o'shanda ham tasodifiy suratda eshitadi; kishilarning ko'ziga oddiy hodisalar – mashinaning chok tikishi, patefonning qo'shiq aytishi, bir palla tarvuzning po'chog'ida ko'rsatilgan oddiy "nayrang", ohanraboning temir kalitni o'ziga tortishi, tug'ruqxonada odamning tug'ilishi, "shayton arava" – velosiped mingan kishining harakati – barcha-barchasi g'ayritabiiy, mo'jiza bo'lib ko'rinaveradi. Jo'n, ba'zan tasodifiy xatti-harakatlar juda ko'ngilsiz va dahshatli oqibatlariga olib keladi. "O'likning yog'ini, tirikning tirnog'ini eyishga" turgan "ajdaho" To'raqul vofurush o'jar, dog'uli Valixon so'fi, olg'ir, mug'ambir ellikboshi, oqqoshshoning arzandasi yuz boshi bilan bog'liq hikoyalar dillarni larzaga soladi.

Qissada goho ko'ngilga huzur baxsh etuvchi nurli lavhalar, kishilararo hazil-mutoyibalar ham uchraydi, biroq bu quvonchli daqiqalar uzoqqa bormaydi, tezda avvalgisidan battarroq, dahshatliroq hodisalar bilan almashadi. Oqdomlaning jinnixonasi yonida umrguzorlik qilish azobidan qutilib, Yaypanga ko'chgan oilaning yo'ldag holatini eslaylik: yo'l bo'yidagi devorsiz, devori qulagan, nuragan bog'lar, qing'ir-qiyshiq uylarini quchoqlab yotgan chorbog'lar, qiyg'os gulag kirgan daraxtlar... butun qishloq kattakon bog'ga o'xshaydi. Shu damlarda oila a'zolari qatori Abdullaning ham ko'ngli chog', o'rik g'o'rasini eganda ham hamma yoqni bahor hidi tutib ketadi, butun bahor shu chigitdakkina g'o'raning ichiga qamab qo'yilganday tuyuladi... Afsus, bu quvonch uzoqqa bormaydi. Mana shu

go'zal makonda oila manfur kimsa Vofurush xonadoniga tushib qoladi, oilaning galagi ko'rguliklari boshlanadi... Oilaning yana bir ko'shgan joyi – Oqqo'rg'on qishloq emas, anjirzor bog'lar, chorbog'larda nuqul anjir. Oila tushgan hovli sahnida ikki tup anjir, shoxlarida shig'il mevalar, kindigidan sap-sariq sharbat oqib yotipdi; ochlik bo'lishiga qaramasdan, unga hech kim tegmagan... Quvonchli hodisa vaziyat; biroq shu zahoti dilni g'ash qiladiga holat; hovlining egasi bulturgi vaboda bolachaqasi bilan qirilib ketgan; oila mana shu xosiyatsiz maskanda yashashga majbur...

Bundan butun asar mana shunaqa ko'ngilsiz voqealr tizimidan tashkil topgan.

Qisqasi, o'zbek adabiyotida ma'nosiz hayotning bu xildagi muthish manzaralari hech qachon bu qadar shafqatsizlik bilan ifoda etilgan emas. Yozuvchi haqiqat oldida hatto o'z yaqinlari, otasini ham ayamaydi. Bu jihatdan "O'tmishdan ertaklar" XX asr jahon janggi adabiyotining noyob badiiy durdonalari qatoridan o'rin olishga haqlidir.

Sarlavha va epigraf tanlashda Maqsud Shayxzodaning ham mahorati ko'zga yaqqol tashlanadi. Lirikada sarlavha umumiy to'plam sarlavhasi va alohida she'rlar sarlavhasiga bo'linadi. Bunda alohida mahorat talab etiladi. Chunki lirik to'plamning umumiy sarlavhasi shu to'plamga kiruvchi asarlarning ham mazmun mohiyatini qamrab olishi lozimdir. Shayxzoda she'rlari "Chorak asr devonida", "Dunyo boqiy", "Xiyobon" singari o'nlab to'plamlarda bosilib chiqdi. Bu she'rlar yuksak insoniy orzular bilan yashayotgan zamondosh xayollari, muhabbati, dardlari, umidlari bilan kuylandi. To'g'ri, qirq yil davom etgan ijodida Shayxzoda Kreml, sho'rolar, firqa va firqaviylarni ham kuyladi. Lekin bu zamon va tuzumning shoir taqdiri va ijodidagi muhridir. Biroq, Shayxzoda she'riyatining qimmatini bu yo'nalishdagi asarlar bilan emas, inson qalbining nozik va betakror holatlarini nafis va ko'tarinki, umidvor aks ettirib, o'quvchida ana shunday go'zal onlarning yanada boyishida xizmat qiluvchi asarlari bilan belgilanadi. Shayxzoda shoirning asosiy vazifasini "inson ruhini tarbiyalash, odamda yaxshilik unsurlarini

ko'paytirish, xalqqa go'zallik va nafosat tuyg'usini yanada baland darajada ko'tarishda" deb bilgan edi.

Uning "Toshkentnoma" nomli lirik -falsafiy dostoniga munosabatda ham shu nuqtai nazardan kelib chiqish to'g'ri bo'ladi. Shoining bu fikrlari o'zining aksar she'rlari uchun ham ochqich bo'la oladi.

Maqsud Shayxzoda fikricha va iqroriga, hayotdagi buyuk ne'matlardan biri she'riyat, tengsiz go'zalliklardan biri she'rdir. Shayxzoda "She'r chin go'zallik singlisi ekan" nomli she'rda butun ijodi bo'ylab porlagan - she'riyatning insonga cheksiz go'zalliklar, ruhiy tovlanish va evrilishlar in'om etguvchi mohiyatini kuylaydi, uning yangi-yangi qirralarini ochishga intiladi.

She'r sarlavhasidagi fikr, bir jihatdan, yangilik emasdek. Unga yaqin qarashlarni Navoiy, Pushkin, Esenin, Cho'lpon ijodida ham uchratamiz. Biroq she'riyatning yozilmagan qoidalariga ko'ra, asosiy masala, asarga turtki bo'lgan fikr va ifodalanayotgan ma'nodagina emas, balki ularning badiiy namoyon etilish tarzi, o'quvchi ruhiyatida yangi to'lqinli tuyg'ularni uyg'ota bilish san'atidir. Shayxzodaning "She'r chin go'zallik singlisi ekan" asari shu jihatlari bilan qimmatli.

Asarda she'riyat, inson tabiati va umrini yashnatib turuvchi ulug' xosiyatlardan biri sifatida ulug'lanadi. She'r bilan oshno bo'lish, muallif fikricha, inson fe'l-atvorini, quvvayi ziyosini, ma'naviyatini sermazmun qiladi, ruhiyati barkamol bo'lishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Har kimki u bilan sevishsa agar -

Husniga chiroylar qo'shilar aynan.

Bu chiroy nainki surat, ayni vaqtda siyrat chiroyi hamdir. O'quvchi bu misralarning hayotiy, jonli, purhikmat ekaniga sinfdoshlar, uzoq-yaqin hamsuhbat do'stlar, tanish-bilishlar misolida ishonch hosil qilishi turgan gap. She'riyat ixlosmandi umr ma'nosidagi achchiq haqiqat-u, oniy nazokatlarni chuqur tushunishi, tiniqroq his etishi, go'zal ma'nolar va tuyg'ulardan mutaassir bo'lishi hamda shular ta'siridagi o'zining kishini o'ziga jalb etib turmaydimi?

Umr shomiga yaqin Shayxzoda bir xatti-harakatlari, dunyoga qarashi, atrofdagilarga munosabati, xususan, ichki va tashqi istarasi bilan qator judoliklarni boshdan kechirdi. 1966-yilda yaqin do'sti, buyuk shoir G'afur G'ulom, munosabatlari yaqin bo'lgan ulkan davlat arbobi Usmon Yusupov vafot etdi. Bu yo'qotishlar shoir yuragida kuchli aks sado berdi: "G'afurga xat" va "Ayriliq" (Usmon Yusupov xotirasiga) nomli she'rlar yaratildi.

Insonni qadrlash, har bir qalbning izzat nafsiga xolis munosabat muammolarni badiiy yoritish Shayxzoda she'riyatining etakchi yo'nalishini tashkil etadi. Shoir o'zi ham hayotga bir qator adolatsizlikka ro'baru keldi. O'tgan asrning 20-yillarida nohaq quv-g'inga uchradi, 50-yillar avvalida nohaq qamalib chiqdi. Bular bari beiz o'tmadi, albatta:

Do'stlar, yaxshilarni avaylab saqlang!
"Salom" degan so'zning salmog'in oqlang!
O'lganda yuz soat yig'lab turgandan -
Uni tirigida bir soat yo'qlang!

"Ayriliq" she'rida shu poetik g'oya yanada chuqurlashtirildi. Asar XX asr o'rtalarida O'zbekistonga rahbarlik qilgan, xalqning sevimli farzandi xotirasini ulug'lashga qaratilgan bo'lsa-da, mohiyatan, xalq, Vatan uchun fidoyi siymolar nomini abadiylashtirish, ularga hurmat bajo keltirish maqsadlariga qaratilgan.

Yurak kichik, lekin o'ziga ko'p narsani sig'dirishi mumkin. Yo'qotilgan insonning katta-kichigi bo'lmasa-da, do'st ayrilig'ini, Vatanning sevimli farzandidan judolikni yurakka sig'dirish qiyin ekan, deydi shoir:

Motamning o'lchovi sig'mas yurakka,
Faryodlar achchig'i tepar ko'krakka.

"Ayriliq" she'rining ayniqsa, so'nggi ikki misrasi e'tiborli:

Ammo uning bevaqt o'limiga, oh,
Senda ham, menda ham bor jindek gunoh!

Bu realistik bayt chuqur ma'nolidir. Chindan ham, atrofimizdagi tanish-bilish, yaqinlarimizning ayrim bevaqt vafotiga ba'zi hollarda o'zimiz sezib-sezmay yo'l qo'ygan bemehrlilik, oqibatsizlik, beparvolik, nomardlik, sovuqqonlik ham

sabab bo'lmaydimi? Bu - she'rning umumiy ruhiyatidan, badiiyatidan kelib chiqadigan saboq. Asarning tarixiyligiga kelganda, bu fikr lirik qahramonga asos bo'lgan tarixiy shaxsga nisbatan o'z davrida ko'rsatilgan ayrim adolatsizliklarga ishoradir. Bu fikrni o'tgan asrning 60-yillari o'rtasida aytish oson emas edi. Lekin shoir Shayxzoda bu poetik fikrni badiiy yo'sinda chiroyli va ta'sirchan ifodalaydi. Badiiy haqiqat bilan bir qatorda tarixiy xaqiqatni ham aks ettirishning yo'lini topdi.

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotini "Jaloliddin Manguberdi", "Mirzo Ulug'bek" nomli tarixiy dramalar bilan boyitdi. Bu asarlar sarlavhasi asar qahramonlari nomi bilan yuritilgan. Jaloliddin Manguberdi - tarixiy shaxs. Xorazm shohi Muhammadning o'g'li. U umrining so'nggi yilida Xorazmshohlar davlati hukmdori esa-da, Chingiz boshliq mo'g'ul bosqinchilarining quvg'ini tufayli, hayotining bu davridagi asosiy qismini lashkarlari va saltanati bilan yurt sarhadlaridan olisda o'tkazishga majbur bo'lgan. Jaloliddin mo'g'ul qo'shinlariga qaqshatqich zarbalar bergan, Vatan ozodligi uchun kurashlar olib borgan, lekin kuchlar teng bo'lmagani bois chekingan. 1231-yilda qaroqchi kurdlar qo'lida halok bo'lgan.

"Jaloliddin Manguberdi" dramasida Shayxzoda Vatan erki, mustaqilligi uchun fidoyilarcha kurash olib borgan mana shu jasur sarkarda qiyofasini badiiy gavdalandirdi. Jaloliddin Manguberdi Amir Temurga ham ibrat bo'lgan buyuk siymodir.

Ma'lumki, sho'ro davrida, o'tmio'dagi xon, sulton, hukmdorlarimiz nechog'liq buyuk va vatanparvar bo'lishidan qat'iy nazar, yoppasiga qoralab kelindi. Chunki sho'rolarga buyuklarimizdagi xuddi ana shu vatanparvarlik qudrati ma'qul kelmas, ota-bobolarimizdagi ana shu buyuk xislat yangi avlodlarga o'tishini istamas edilar.

Shu davrlarda qatag'on qilingan bunday ulug' siymolar nomi mustaqillik davriga kelib tiklandi. O'zbekiston hukumati xalqning bu jasur farzandi nomini abadiylashtirish maqsadida "Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida" (1998) maxsus qaror qabul qildi, O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan (2000) "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi.

Vatanparvarlik hissiyoti jo'sh urib yozilgan Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi 1945-yilda Hamza nomidagi O'zbek davlat drama teatri tomonidan muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilgunga qaramay, ko'p o'tmay, sahnadan olib tashlandi. Muallifga esa o'tmishni, xonlarni, beklarni, feodalizmni oqlash va yoqlash tamg'asi yopishtirildi. Bu "aybnoma" nohaq qamalishiga ta'sir ko'rsatdi.

Dramaning ayrim parchalarigina yozilgan kezlari nashr etildi. Muallif hayotlik chog'ida, biror marta to'lig'icha chop etilgani yo'q. To'lig'icha ilk bor o'zbek tilida dramaturg vafotidan yigirma bir yil o'tgach (1988) bosmadan chiqdi.

"Jaloliddin Manguberdi" dramasida ona-Vatan uchun, uning ozodligi uchun bosqinchilarga qarshi kurash olib borgan jasur sarkarda, buyuk hukmdor siymosi o'zining, ayniqsa, tabiiy, jonli tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Tasvirdagi qahramon tabiiyligini ta'minlovchi muhim hayotiy omillar bor, albatta.

Xalqni, lashkarni dushmanga qarshi birlashtirish va yurt himoyasini uyushtirish yo'lidagi Jaloliddin ko'rsatgan jonbozliklarini saroydagi Badriddin singari munofiq kimsalar va ular ta'sirida dastlab otasi Xorazmshoh ham to'g'ri tushunmaydi. Shunda Jaloliddin "Menga koshonadan chodir yaxshiroq" deb chiqadi va yurt himoyasi uchun qo'shin berishlarini talab qiladi. Amir Badriddin valiahdning bu mardona so'zlari ostidagi maqsad vatanparvarlik emas, taxtni egallash deb tushunib, shoh hayot bo'lishiga qaramay, "u taxtga ega bo'lmoqchi" deb ig'vo boshlaydi.

Jaloliddin - qahramon shaxs. U jasur sarkarda, elni, yurtni g'animga qarshi birlashtirayotgan, tashabbusi bilan lashkarni ulug' g'alabalarga ilhomlantirayotgan va bu yo'lda ibrat ko'rsatayotgan valiahd bo'lishiga qaramay, ayni vaqtda, oddiy inson sifatida gavdalanadi. Masalan, Jaloliddin bilan singlisi Sultonbegim o'rtasidagi oddiy insonlarga xos bo'lgan aka-singillik mehr-oqibatlari shu qadar samimiy va go'zal tasvirlanadiki, kishining havasi keladi.

Vatan va xalq taqdirining eng qaltis pallalarida ularni bosqinchilardan himoya qilish uchun otlangan Jaloliddinning bu yo'ldagi shijoatini, jur'atini, jasoratini ko'rsatar ekan, dramaturg o'z qahramonining valiahd va hukmdor

sifatidagi xususiyatlaridan ko'ra oddiy inson sifatidagi iztiroblarini, har qanday insonga begona bo'lmagan ayrim mas'uliyatli holatlardagi ikkilanishlarni badiiy tasvirlashga alohida e'tibor beradi. Bu esa qahramon xarakterining ishonarli, jonli va hayotiy chiqishini ta'minlaydi.

Dushman qo'liga tushib azoblangandan ko'ra, o'limni afzal bilib, hatto dunyodagi eng aziz zot - onasi va farzandlari daryoga cho'ktirilishini ma'qul ko'rgan Jaloliddin Manguberdi va mard Temur Malikning tarixiy haqiqat ruhi bilan yo'g'rilgan siymolari dramaturg Maqsud Shayxzoda qalami ostida ko'z o'ngimizda tirik insondek gavdalanadilar.

Dramaturg Chingizxon obrazini mahorat bilan yaratadi. Shunisi muhimki, u bu obrazni qora bo'yoqlarga chaplab tashlamaydi. Tarixiy haqiqatga rioya qilgan holda, bu shaxsning Jaloliddin va Temur Malik qahramonligi jasoratiga tan berganligini ifodalashni unutmagani holda, uning tabiatidagi bosqinchilik, yovuzlikni, pokiza insoniy tuyg'ularni oyoq osti qilish singari xususiyatlarni to'laqonli badiiy gavdalantiradi:

Adolat yo insof? Nima degan u?

Tupurdim bularga, ming katta tfu!

Chunki, bu fikri uning dunyoqarashini juda aniq ochib bera olganidek, mana bu mulohazalari uning ruhiy dunyosiga bir ochqich bo'la oladi:

Muhabbat! Bu so'zni kimlar to'qigan?

Go'l shoir yozgan-u, tentak o'qigan.

Yuqoridagi qahramonlar, asosan, tarixiy qahramonlardir. Asarda ular bilan yonma-yon dramada muallif badiiy taxayyulining mahsuli bo'lgan Elbors pahlavon, Yaroqbek, Navkar, No'yon, Tabib chol singari to'qima qahramonlar ham ishtirok etadilar. Ko'rinib turibdiki, Jaloliddin Manguberdi dramasi asosini, mevalarini etakchi qahramonlarini tarixiy shaxslar tashkil etadi. Lekin to'qima personajlarning zimmasidagi yuk ham oz emas. Elbors pahlavon va Chol qiyofalarida, asosan, xalq, xalq vakillari qiyofasi, kuchi mujassamdir. Elbors pahlavon, aslida cho'pon. U qaltis vaziyatlarda Jaloliddinning yonida bo'ladi.

Unga ko'makka keladi. Sarkardani zaharlashga intilgan tabib og'usidan saqlab qoladi. Bosqinchilar bilan ayovsiz janglarda qahramonlik namunalarini ko'rsatadi.

Maqsud Shayxzoda bu obrazlarga muhim ma'no yuklar ekan, yurtimizdagi XIII asr tarixiy hodisalarini gavdalantirishdan tashqari, Vatan bosqinchilariga oyoq osti bo'lishida, xalq boshiga azob-uqubatlar yog'ilishida, mustaqillikning qo'ldan ketishida mana shunday xiyonatlarning o'rni oz emas, degan achchiq, lekin muhim degan ma'nolarga ham ishora qilmoqchi bo'ladi. Shunday ekan, ushbu drama Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari asosiy qahramonlari bilangina emas, Badriddin, Yaroqbek, Sulton Muhammad Alovuddin singari personajlari bilan ham bizni ogohlikka chaqiradi, Mustaqilligimizni ko'z qorachig'idek e'zozlashga da'vat etadi, xalqni, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

“Jaloliddin Manguberdi” dramasi badiiy jihatdan teran asardir. Asar monolog va dialoglari pishiq ishlangani, har bir qahramon xarakterining ham til boyligini, ham ruhiy dunyosidagi o'ziga xoslikni ifodalay oladigan yo'sinda ekani bilan ajralib turadi. Qahramonlararo konfliktlarda sun'iylik yo'q, ular voqealarning tabiiy oqimi va xarakterlar kurashidagi maqsadning hayotiyliigi va haqqoniyligidan kelib chiqadi.

Bu asarga qadar dramaturgiyamizda “Abulfayzxon” singari tragediyalar mavjud edi. Shunga qaramay, mazkur asar o'zining tug'ilishi va shakli jihatidan Sofokl davridagi qadimgi Yunon mumtoz tragediyalaridagi fazilatlarni o'zida namoyon etuvchi dastlabki o'zbek dramalaridan biridir, deyish mumkin. Birinchi pardadagi xos vazifasini ijro etuvchi umumiy yallalar, sipohlar yallasi, soqchilar qo'shig'i, sahnaga, shuningdek, alohida ovoz personajlarining olib kirilishi, ikkinchi pardada jarchilar va masxarabozlardan foydalanish, xalq obrazini ifodalovchi personajga murojaat etilishi va boshqalar shunday deyishga asos beradi. Qadimgi mumtoz yunon tragediyalaridagi bu xususiyatlar, mohiyat e'tibori bilan qaraganda, o'zbek dramaturgiyasida ilk bor qo'llanishidir.

Bunday xususiyatlar dramaturgiyamiz jahon dramaturgiyasidagi rang-barang, murakkab shakl va tuzilishlarni o'tgan asrning o'rtalaridayoq o'zlashtirish salohiyatiga ega bo'lgan san'atkorlarimiz bo'lganini ko'rsatadi.

Dramatik asarni she'riy shaklda yozish muallifdan katta poetik mahoratni talab etadi. Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" she'riy dramasi ana shunday katta san'atkorlik bilan yozilgan poetik asardir. Asarga uning mazmuniga mos poetik sarlavha tanlash Hamid Olimjon ijodida ham o'ziga xos ulug'vorlikni ko'rsatadi. Uning tarixiy mavzudagi qator asarlarida asar ichki pafosi davr va zamon ruhiga ham moslashtirilgan.

Odatda "Muqanna", "Jaloliddin Manguberdi" singari tragediyalarning ijodiy tarixi to'g'risida so'z borganda, ularning ikkinchi jahon urushi yillarida jang maydonlarida kurashayotgan va mehnat jabhalarida faoliyat olib borayotgan xalqni jasorat va qahramonlikka chorlash maqsadida, davrning ijtimoiy buyurtmasi sifatida yozilgani aytiladi⁶. Ammo Hamid Olimjon ijodining tadqiqotchilari bergan ma'lumotga ko'ra, shoir Muqanna qo'zg'oloniga bag'ishlangan sahna asarini yozishga 1937-yildayoq kirishgan va hatto o'sha yil asarning birinchi pardasini yozib tugatgan. To'g'ri, 1937-yilda shoir ustida ham qatag'on bulutlarining to'planishi bilan u asar ustidagi ishni to'xtatib qo'ygan va 1942-yilning boshlarida asarga qayta kirishib, o'sha yilning 12-fevralida birinchi pardaning yangi nusxasini yozib tugatgan. 1942-yil 31-mayda esa asar ustidagi ish uzil-kesil yakunlangan.

Hamid Olimjonning "Muqanna" tragediyasini urush yillarida yozish undan o'n uch asr muqaddam bo'lib o'tgan xalq ozodlik harakatiga shu davrning "ko'z"i bilan qarashni, shu davrdagi siyosiy-ijtimoiy sharoitni, davr g'oyalari va ma'naviy ehtiyojlarni 'tiborga olishni talab etdi. Binobarin, shoir, birinchi navbatda, Vatan ozodligi yo'lida kurashgan va shu kurashda qurbon bo'lgan Muqanna va uning safdoshlari qahramonona obrazlarini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Hamid Olimjon tarixiy haqiqatdan kelib chiqib, asarga Muqannadan tashqari, uning safdoshlari – G'irdak, Bog'iy, Xishriy, Hakim, Kulartagin singari tarixiy shaxslar va shu bilan birga oddiy xalq ommasining Otash, Gulobod va

⁶ Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami.- Toshkent: Fan, 1979, 278-279-betlar.

Guloyin singari vakillarining to'qima obrazlarini ham olib kirgan. Bu har ikkala toifadagi obrazlar o'zaroaloqaga kirishib, muallifga tarixiy davr haqiqatini o'z badiiy niyati doirasida mujassamlantirish imkonini bergan.

Muqanna xalq zo'rlik bilan musulmon diniga o'tkazilayotgan bir paytda Muqannaning o'z maslakdoshlari bilan kelib, vatandoshlarni zulm va zo'ravonlikka qarshi kurashga undashi bilan tragediyaning tuguni boshlanadi. Va bu tugun rivojlani, ikki ijtimoiy kuch o'rtasidagi kurash o't bo'lib olib ketadi.

Muqanna aksar tarixiy manbalarda soxta payg'ambar sifatida tasvirlangan. Narshaxiy singari tarixchilar o'zlari mansub bo'lgan ijtimoiy qatlamning dunyoqarashidan kelib chiqib, Muqannani qandaydir lo'ttiboz sifatida talqin etganlar. Holbuki, Muqanna qo'zg'oloni feodal jamiyatning turli-tuman qatlamlarini o'zida birlashtirgan ulkan xalq harakati edi. Bu harakat o'zidan yuz yil muqaddam O'rta Osiyo va Movarounnahr cho'llarida o'tkazilgan va mahalliy xalqning qoni bilan sug'orilib turgan islomning hali nimjon niholini tag-tomiri bilan sug'urib tashlashga oz qolgan. Milliy ozodlik kurashi bayrog'i ostida o'tgan bu harakat arab bosqinchilari olib kelgan davlat tuzumini qariyb 15 yil mobaynida larzaga keltirib turgan.

Muqannaning asl ismi Hoshim ibn Hakim bo'lib, Muqanna uning laqabidir. "Niqobli kishi" ma'nosini anglatuvchi bu laqab, aftidan, unga xalq tomonidan berilgan. Muqanna marvlik bo'lib, otasi singari Abu Muslim huzurida sarxang (ofitser) bo'lib xizmat qilgan. Narshaxiyning aytishicha, u keng bilimli, turli fanlar va "sirli san'atlar"dan xabardor kishi bo'lgan. U o'z atrofiga xalq ommasini to'plash va uning muhabbatini qozonish niyatida o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. Manbalarda aytilishicha, Muqanna odamlarning: "Boshqalar faqat payg'ambarlik da'vosini qilgan edilar. Nega endi sen xudolik da'vosini ham qilayapsan?" degan savolga: "Boshqalar faqat vujudan iborat edilar. Men esa boshdan-oyoq ruhdan iboratman va istagan qiyofada, hatto Odam Ato, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad, Abu Muslim sifatida paydo bo'lishim mumkin", degan.

Muqanna xalq ommasiga qanday so'zlar bilan murojaat etmasin, uning maqsadi bitta g' yurtga bosib kelgan, o'z dinini zo'rlab o'tkazmoqchi bo'lgan bosqinchilarga qarshi kurash, xalq va mamlakatni qullikdan ozod etish. Hamid Olimjon nemis fashizmi sovetlar mamlakatiga hujum qilgan Ikkinchi jahon urushi yillarida ana shu maqsadini badiiy mujassamlantirish uchun Muqanna qo'zg'oloni mavzusiga murojaat etgan.

Hamid Olimjon Guloyin siymosida siyosiy va mafkuraviy aqidalar to'riga ilinmagan, cho'ri bo'lsa ham o'zini erkin qushdek his etuvchi, pokiza, yorug' orzular va intilishlar bilan yashayotgan qiz obrazini yaratgan. Guloyin otasining: "Biz hali ham topinamiz otashga. Sen-chi, qizim?" degan savoliga javoban bunday so'zlarni aytadi:

...Shuncha yillar otashgaohga topindim
Va bilmadim, ilohim kim, tangrim kim?
Qayg'usi yo'q biror kunni ko'rmadim,
Biror soat men baxtiyor bo'lmadim.
Ixtiyorni bersang agar menga sen
Ozodlikka topinardim yolg'iz men.

Guloyin o'zidagi ana shu erksevarlik fazilati tufayli Muqanna siymosida nafaqat xaloskori, balki o'z orzularining ushalishiga yordam berajak yorqin siymoni ham ko'radi, uni sevib qoladi va uning muhabbatini qozonadi.

Dramaturg Guloyin obrazini rivojlantira borar ekan, uning Battol va Feruz singari xoinlarni larzaga soluvchi qilich sohibi, mard va jasur ayol darajasiga ko'tarilganini ishonarli tasvirlaydi. Guloyin xoin qilichidan halok bo'ladi. Ammo uning qoni ozodlik yo'lida to'kilgan va boshqalarni kurashga yanada chorlagan hayotbaxsh qon edi. Dramaturg Komil Yashin o'sha yillarda "Muqanna" spektakliga yozgan taqrizida Guloyinni jahon adabiyotining Laurentsiya, Neston-Darijon obrazlariga qiyos qilgan ediki, bu tasodifiy emas.

"Muqanna" tragediyasi to'g'risida bahs borganda, uning nafaqat urush yillarida, balki sovet mafkurasi diniy e'tiqodiga qarshi o't ochgan davrlarda yozilganini unutmaslik lozim. Xuddi shu narsa asar qahramonlarining musulmon

dini sha'niga aytgan so'zlarida o'z ifodasini topgan. Lekin bu qahramonlar otashparatslar diniga mansub bo'lganlari uchun ularning Qur'on yoki islom dini sha'niga aytilgan so'zlarini muallif dunyoqarashining ifodasi sifatida qabul qilish to'g'ri bo'lmaydi. Zeroki, dramaturg asarda Muqanna qo'zg'oloni misolida o'zbek xalqining uzoq asrlar mobaynida har qanday zulm va zo'ravonlikka, bosqinchilikka qarshi, erk va hurriyat uchun olib borgan qahramonona kurashini tasvirlashigina o'ziga maqsad qilib olgan.

Hamid Olimjon XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga dastavval lirik shoir sifatida katta hissa qo'shdi. Uning urush yillarida yozgan ikki dramatik asari, ayniqsa, "Muqanna" tragediyasi o'zbek dramaturgiyasida katta voqea bo'ldi. Bundan tashqari, u adabiyotshunos olim sifatida ham o'zbek xalq og'zaki ijodi, ham mumtoz o'zbek adabiyoti, ham XX asrning birinchi choragidagi o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishga qaratilgan tadqiqodlarni yaratdi. Uning bu sohadagi ishlari orasida Fozil Yo'ldosh og'zidan yozib olingan "Alpomish" dostonini nashrga tayyorlaganligi va Alisher Navoiy ijodini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy maqolalari, ayniqsa, ahamiyatlidir. Shuningdek, Hamid Olimjon rus adabiyotining bir qator go'zal namunalarini o'zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qilib, ularni xalqimiz va madaniyatimizning qimmatbaho mulkiga aylantirdi.

Asarga istehzoli, kinoyaviy sarlavha tanlash Mirtemirning "Surat" lirik qissasida ko'rinadi. Mirtemir doston janrida samarali ijod qildi. Bu dostonlar orasida xalq ertaklari motivlari asosida yozilganlari ham, zamonaviy mavzudagilari ham, shuningdek, "Farg'ona" singari lirik dostonlar ham bor.

Mirtemirning lirik doston janriga yaqin "Surat" deb atalgan yana bir asari borki, shoir bu asar janrini "Lirik qissa" deb belgilagan. Yana shuni aytish joizki, shoir bu asarning avtobiografik xarakterga ega ekanligini yashirish maqsadida va yana bir tomoni, 1956-1957-yillarda yozilgani uchun uni shu davr ijodining porloq mahsuli – "Qoraqalpoq daftari" she'ri turkumiga kiritgan.

"Surat" bir necha lirik she'rlardan tarkib topgan. Bu she'rlari mustaqil she'r sifatida ham o'qish va ularda zavq-shavq olish mumkin. Ammo, ayni paytda ular o'zaro yagona lirik sujet mehvariga terilgani uchun bizni bosh qahramonning

mashaqqatli muhabbati taqdiri bilan tanishtiradi. Shu ma'noda shoir asar janrini lirik qissa deb to'g'ri belgilagan.

Qissada tasvirlanishicha, asarning bosh qahramoni Toshlon to'rt yillik (*Surat, surat, nega sen tilsiz? Seni asrab to'rt yil qo'ynimda seni kuta... Topinardim, o'pardim... essiz !*) jangda (*Gunohim ne? Jangda bo'lganim, qon kechganim, ming bor o'lganim?*), demak, Ikkinchi jahon urushi frontlarida jang qilgan paytda uning halok bo'lganligi haqida xabar tarqaladi. Shundan keyin Toshlonning sevimli yori undan umud uzib, boshqa bir kimsaga turmushga chiqadi. Urushdan osmon-eson qaytgan Toshlon bu xoinlikka duch kelib, falakning adolatsizligidan eziladi, iztirob chekadi.

Oradan yillar o'tib, bevafo yor tufayli qalbdan oqqan jarohat qonlari to'xtaydi. Yurak yaralari hayotning boshqa voqealari ta'sirida malham topadi. Ammo, ittifoqqa chiqib qolgan bevafo yorning surati Toshlon qalbidagi eski jarohatni tag'in yangilab yuboradi. Lirik qissa Toshlon hayotining xuddi shu soniyasidan boshlanadi.

Mirtemir hayotidan yaxshi xabardor bo'lmagan ayrim adabiyot shinavandalari lirik qissa sujetidagi ana shu nuqtadan noto'g'ri xulosa chiqarib, shoirning 1941-1945-yillar urushida ishtirok etgan, deb o'ylagan va shu taxmin asosida qissada tasvirlangan voqeaning uning o'ziga nisbat bergan holat ong bo'lmagan. Hozirgi kitobxon esa bu asarda Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan va asarda Toshlon ismi bilan harakat qilgan sobiq jangchining ruhiy hayoti tasvirlangan, deb o'ylashi mumkin.

Yuqorida aytganimizdek, Mirtemir 22 yoshida qatag'onning achchiq tuzini yalagan va bu dahshatli voqea shoirning butun hayotida chuqur iz qoldirgan. Ushbu lirik qissada shoir o'z hayoti lavhalarini tasvir etgan, ammo u o'z dardini doston qiladigan kishilar qavmidan bo'lmagani uchun ruhiy iztirobi bilan bog'liq voqealari qoraqalpoq yigiti Toshlon obrazi orqali aks ettirgan:

Gunohim ne? Jangda bo'lganim,
Qon kechganim, yuz bor o'lganim?
Diydoringni unutmayin,

O'limlardan hatlab kelganim?⁷

Bu satrlarda shoirning Moskva-Volga kanali qurilishida kechgan azobli hayoti va o'limlarni hatlab kelgani o'z ifodasini topgan.

Shunday qilib, Toshlon – bu Mirtemirning o'zi. Ya'ni shoir ushbu asarda Toshlon nomi bilan harakat qilmoqda.

Toshlon eski qog'oz, hujjat va rasmlar orasidan ittifoqqa sobiq yorning suratini topib oladi. Uning xayolida bu bevafo yor bilan ilk uchrashuvlar, u bilan kechgan baxtli daqiqalar birma-bir gavdalanadi:

Sen kelgin tong chog'ida,
Sen kelgin naq tong misol.
Tong balqib yonog'ingda,
Ko'zlaring o'ynata ol!...

Sen kel tush paytida ham,
Daryoda etgin misol.
Sochlarin to'zg'it bir dam,
Dilni ham qo'zg'ata ol!...

Mirtemirning, demak, Toshlonning yori mashhur raqqosa bo'lgan. Shoir uni yod etganida qo'shiq va raqslar olamida kechgan oqshomlarning xotiraga kelishi tabiiy. Shuning uchun ham bevafo yor Toshlon xotirasida jonlanar ekan, shoir she'riy nutqda qo'shiq va raqslarning o'ynoqi ritmlaridan mohirlik bilan foydalanadi. Toshlon faqat shu surat orqali emas, balki sobiq raqqosa xotinini sahnada ko'radi, u bilan yuzma-yuz keladi. Hatto uning mehrli munosabatini sezadi. Ammo...

Shunday paytlarda uning ko'nglidan turli ziddiyatli tuyg'ular o'tadi:

Essiz, ayoq tunlar, uyqusiz tunlar!
Jang va burch... Yor hajri... Qatma-qat jafo.
Nahot men seni deb bo'ldim tutunlar?
Nahot shunday dilbar beburd, bevafo?..

⁷ Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: 2002.

Toshlon (Mirtemir) shu vaqtda respublikaning mashhur siymolaridan biri.
Hurmat va izzat og'ushida.

Sobiq yor endi unga sirli-sinoatli xatlar yozadi:

Xating, jahon, obdon beta'sir,
Uzilgan ip nechuk bog'lanur?
O'zing, axir, saqlayapsan sir,
O'z aybingdan qalbing dog'lanur...

Bazmlarning guli bo'lganing –
Yolg'on bo'lsa, boq-chi ko'zimga.
Maqtovlarning quli bo'lganing –
Yolg'on bo'lsa, ayt-chi o'zimga!

Asar ana shunday dramatik voqealarning lirik ifodasi, Toshlon ruhiy hayotining kundaligi sifatida yozilgan.

Demak, asarda ikki qahramon – Toshlon va Oysuluv obrazlari yaratilgan. Asarda tasvir etilgan voqealar Toshlon tilidan bayon etilgani uchun biz bosh qahramon obrazi mohiyatini uning ruhida kechgan o'zgarishlar, jarayonlar tasviri orqali idrok etamiz. Bu ruhiy o'zgarish va jarayonlar esa, uning nafaqat jang-u jadallarda qon kechgan, balki muhabbat fojialarni ham boshidan kechirgan, ammo hech narsaga qaramay, yuksak insoniy fazilatlarini saqlab qolgan oliyjanob inson sifatida gavdalanadi.

Endi Oysuluv obraziga kelsak...

Lirik qissa davomida biz Oysuluvning bevafo ayol sifatidagi qiyofasi bilangina emas, ayni paytda Toshlon muhabbatini qozongan ayol sifatida ham idrok etamiz. Ehtimol, Toshlonning qalbida hali ham o'sha muhabbat cho'g'i so'nmagandir. U go'zal ayol...

Mirtemir uning go'zal qiyofasini Toshlon nigohi orqali tasvirlab, yozadi:

Tasviringga no'noqman, nochor...
Menga qoldi surating yodgor...
O'xshashingni topolmayman hech

Bu malohat faqat senda bor.

Hammasidan kulishing yaxshi,
Dilkash, munis turishing yaxshi.
Ko'kragimga boshingni qo'yib,
Taslim bo'lib turishing yaxshi.

Lirik qissa ana shunday baland pardada aytilgan, suratdagi sohibjamolning siymosi – tashqi va ichki go'zalligi o'tli bo'yoqlar bilan chizilgan, Leonardo da Vinchining sehrli mo'yqalamiga mansub “Jokonda” bilangina raqobatda bo'la oluvchi ayol surati Oysuluvga, balki, umuman, o'zbek ayoliga qasida o'laroq jaranglaydi.

Shoir o'z hayotining achchiq xotiralardan iborat sahifasi asosida yozilgan bu asarda birorta nola, o'kinish, ranjish, la'nat o'qish kabi hollarning yo'qligi, aksincha, unda tiniq va toza insoniy tuyg'ular tarannum etilgani muallif qalbining ulug'ligidan, Mirtemirning inson sifatidagi go'zalligi va oliyjanobligidan darak beradi.

Odil Yoqubov ijodida ham sarlavhaning asar strukturasi, semiyotik markazi tarzida qo'llangan ajoyib sarlavhalari mavjudki, ularda sarlavhaning o'ziyoq asar mazmunini anglatib turadi. Hayotda yonib yashash, yonib ijod qilish – adibning bosh shiori. Yonib yashagan odamlar – asarlarining bosh qahramoni. Uni elga tanitgan “Muqaddas”, “Er boshiga ish tushsa”, “Izlayman”, “Diyonat”, “Oqqushlar, oppoq qushlar”, “Adolat manzili”, “Ulug'bek xazinasini”, “Ko'hna dunyo”, “Bir koshona sirlari” asarlari qahramonlari olovqalb odamlardir, ular bamisoli ko'z oldingizda yonib, o'zgalarni kuydirib, yondirib ko'ngil o'kinchlari, armonlari, faryodlari bilan o'quvchi-tomoshabin qalbiga o't soluvchi otash, taftiga dosh berish mushkul alanganing o'zginasidir⁸.

Odil Yoqubovga eng katta shuhrat keltirgan asarlar tarixiy romanlari – “Ulug'bek xazinasini” bilan “Ko'hna dunyo” bo'ladi. Adabiy tanqidchilikning bahosiga ko'ra “Odil Yoqubovning “Ko'hna dunyo” romanining markazida Ibn

⁸ Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. Ilmiy-adabiy maqolalar. – Toshkent: Fan, 2006-yil, 73-79-betlar.

Sino hamda Beruniy taqdirlari, ular yashagan davri turadi. Muallifning xulosalari va umumlashmalari keng, shuning uchun tarixiy materialga ajib aktual ma'no bag'ishlaydi. Zamonlar osha qilingan sayohat teran falsafiy umumlashmalar chiqarishga imkon beradi. Romanda tasvirlangan barcha voqealar hujjatlar bilan cheklab qo'yilmagan. Odil Yoqubov tarixni xuddi ko'rib turadi, tarix bilan bahslashadi, zamondoshlarga uzoq o'tmishdoshlarining tajribalaridan guvohlik berayotganday bo'ladi. U tarixga bugungi nuqtayi nazaridan qaraydi".

Bu so'zlarda "Ko'hna dunyo" romanining tub mohiyati ochib berilgan. Darhaqiqat, bu roman, avvalo, ulug' allomalar Ibn Sino va Beruniy taqdiri, ular yashagan davr haqida bahs etadi. Ammo u bizdagi mavjud tarixiy-biografik romanlardan, jumladan, "Navoiy", "Yulduzli tunlar" poetikasidan farq qiladi. Xuddi avvalgi tarixiy romani "Ulug'bek xazinasi"da bo'lgani kabi bu yyerda ham qahramonlari hayotini xronologik tarzda hikoya qilish yo'lidan bormaydi, ikkala alloma hayotidagi jiddiy bir palla – bor-yo'g'i bir oydan ortiq davr hodisalarini qalamga oladi. Qahramonlar hayotidagi bu palla shunday bir dovonki, bu dovondan ularning butun bosib o'tgan yo'li, o'tmish va kelajagi yaqqol ko'rinadi. Voqealar sodir bo'lgan maskan shunday bir bekatki, bu bekatda xilma-xil odamlar to'qnash keladilar, bu yyerda umr bo'yi davom etgan ziddiyat, mojarolar muayyan intihosiga etadi, dillarda armon bo'lib yotgan dard-u hasratlar to'kib solinadi, sir-u asrorlar oshkor bo'ladi, umrlar sarhisob etiladi, muallif personajlarga qo'shilib, hayot jumboqlari ustida qizg'in bahslar olib boradi.

Romanga asos qilib olingan hodisa – umr bo'yi Sulton Mahmud G'aznaviyni xushlamagan, sulton ta'qibidan olislarda yurgan Ibn Sinoning pirovardida uning huzuriga kelishi, yigirma yil judolikdan so'ng G'aznada Beruniy bilan diydorlashuvi voqeasi hayotda bo'lgan-bo'lmagani ma'lum emas. Biroq yozuvchi fantaziyasining mahsuli bo'lmish bu hodisalar badiiy haqiqatning go'zal namunasi, noyob badiiy modeli darajasiga ko'tarilgan. Qarang, ulug' alloma, bir tomoni zo'rlik, qolaversa, tabiblik buchi taqozosi bilan keksalik chog'ida, xasta holiday ne-ne mashaqqatlar bilan kecha-kunduz yo'l yurib, aziz va mag'rur boshini egib ma'naviy raqibi – mustabid hukmdor huzuriga uni davolash uchun keladi.

Ammo, bu yerda uning nafsoniyati oyoqosti qilinadi. Saroyda allaqachon Ibn Sino niqobi ostida soxta, firibgar hakim paydo bo'lgan va hiyla-nayranglar orqali hukmdor e'tiborini qozongan. Sulton shu darajaga tushib qolganki, chin Ibn Sino bilan soxta hakimni bir-biridan farqlay olmaydi, firibgarni boshga ko'tarib, chin hakim-u davronni tahqirlab saroydan haydaydi.

“Ko'hna dunyo”dagi bu sujet katta ramziy – umumlashma xususiyatga ega. Haqiqiy iste'dod sohiblar, chin zahmatkash daholar bu yoqda qolib, xor-u zor bo'lib, soxta, firibgar “ijodkor”larning obro' e'tibor qozonishi hamma davrlarga, ayniqsa, mustabit hukmronlar siyosatiga xos tarixning ajib bir sirli jumbog'idir. Roman ana shu sirli jumboq ustida istirob bilan o'ylashga, bahsga undaydi sizni.

Ro'y bergan adolatsizlik ikki buyuk allomada ikki xil taassurot qoldiradi. Charxi kajraftorining xilma-xil o'yinlarini, jabr-u sitamlarini ko'p ko'rgan Ibn Sino bu telba dunyoning mudhish nayranglariga go'yo beparvodek qaraydi. Beruniy esa g'azab, afsus nadomatlardan o'zini qo'yarga joy topolmaydi. Bu xildagi ziddiyatlar holat ham hodisaning dramasini yanada kekinlashtiradi, bahs ruhini kuchaytiradi.

Ibn Sino bilan ustoz Beruniyning G'aznadagi uchrashuvi, Beruniy xonadonidagi muloqotlar, ko'ngil rozlari, ilm-fan, tabiat, koinot va jamiyat haqidagi bahslar ifodasi romanning eng jozibali, huzurbaxsh sahifalarini tashkil etadi. Bir vaqtlar ustoz Beruniy bilan shogird Ibn Sino orasida jiddiy ilmiy tortishuvlar bo'lgan, ustoz shogirdning ayrim qarashlarini keskin tanqid ostiga olgan, bunda ba'zan adolatsizliklarga ham yo'l qo'ygan... mana endi o'sha bahslarga yakun yasash, oydinlik kiritish ko'ngildagi g'uborlarni ko'tarish, umuman ikki alloma hayotida tutgan yo'l, umr saboqlarini sarhisob etish, qarashlarni muvofiqlashtirish payti keladi. Shunisi muhimki, ikki alloma arasida qizg'in munozaralar, tanlangan yo'llarda, qarashlarda ayrim farqlar yuz bergan bo'lishiga qaramay, ular aslida maslakdagi shaxs-siymonlardir. Asarni o'qiganda siz buni butun qalbingiz bilan his etib turasiz. Garchi, G'aznadagi uchrashuv yozuvchi ijodi fantaziyasining samarasi bo'lsa-da, tarixiy haqiqatda mosdir, chunki

ikki buyuk alloma ilmiy ijodiy merosining tarixiy taqdiri, ular orasidagi mushtarakliklar bu haqiqatni to'la tasdiqlaydi.

Beruniy taqdirining romandagi talqini ham g'oyat ibratli. Bu olim hayoti nisbatan, osoyishtaroq kechgan. U uzoq vaqt G'aznaviylar saroyida muqim turib, ilm-fan bilan mashg'ul bo'lgan. Ilm manfaatini deb shaxsiy mayliga zid o'laroq, saltanat bilan murosaga borgan. Shunisi xarakterliki, adib nisbattan osoyishda kechgan bu alloma umrining ichki dramasi, fojiasini butun keskinligi bilan kitobxonaga yetkazadi. Avvalo, ulug' maqsadni deb uzoq yillar shaxsiy maylga zid yo'l tutib yashashning o'zi ulkan fojia. Buyuk gumanist mustabid Sultonning ko'p adolatsizliklarini o'z ko'zi bilan ko'rib turadi, u shohning Hindiston yurishlarida qatnashgan, bu o'lkadagi mislsiz qirg'in, zulmlarning bevosita shohidi bo'lgan... Bularni eslaganda Beruniy adadsiz iztiroblar ichida qovriladi. Buning ustiga barcha Beruniy hukmdor bilan muayyan murosaga borgan bo'lsa-da, baribir har qadamda saltanatdan jabr ko'radi – uning eng oddiy so'rovlari ham saroyda javobsiz qoladi, yaqin kishilarini himoya qilolmay qiynaladi, firibgar soxta hakimning obro'-e'tibor topishi, hakim-u davron Ibn Sinoning tahqirlanishi – bunday adolatsizlikning guvohi bo'lish Beruniy uchun cheksiz kulfat, alam-iztirob.

Romanda saroy muhiti, saltanat ichidagi ziddiyatlar bilan barobar sulton Mahmud G'aznaviy ruhiy dramasi ifodasi ham keng o'rin olgan. Romanda tarixga sinfiy yondashish talabi ustuvor bo'lgan, jahongir shoh-u sultonlar haqida ijobiy gap aytilish man etilgan, jumladan, sulton Mahmud G'aznaviyga salbiy musosabat avj pallaga ko'tarilgan kezlarda dunyoga kelgani tufayli, bu obraz talqinida davr ruhi asoratlari ma'lum darajada o'z muhrini qoldirgan. Asar muallifi sulton Mahmud G'aznaviyni ko'proq mustabit hukumdor sifatida ko'rsatishga jazm etadi, sultonning ezgu ishlari qurgan qasrlari, yaratgan go'zallikda benazir bog'lari, barpo qilgan machit va madrasalari, ilm-fan kishilariga qilgan sahovatlarini, janglardagi shijoati, mardligi, tantiligini ham e'tirof etgan holda, uning hayoti yo'l qo'ygan xatolari, adolatsizliklari, gunohlari uchun umr so'nggida chekkan ruhiy qiynoqlari ifodasiga kengroq o'rin beriladi.

Asarda G'aznavyning biz keskin ruhiy istiroblar iskanjasida uchratamiz. Sulton umrining oxirgi damlari, u og'ir, davosiz dardga mubtalo. Bir tomondan, dardiga davo istaydi, ikkinchi tomondan, o'lim haq, foniy dunyodan ketish oldida umri davomida qilgan gunohlarini eslab eziladi, imkon qadar gunohlardan forig' bo'lishga iltiladi, jabrdiydalar ko'nglini ovlash payiga tushadi. Biroq, sultonning bu ezgu niyat yo'lidagi xatti-harakatlari yangidan-yangi ko'ngilsizliklar, ruhiy istiroblar keltiradi, eng yomoni, sulton o'z qo'li bilan yaratgan hokimlik tartiboti oldida o'zi ojiz qoladi, u xayrli ishlar qilmoqchi bo'lganida saroydagi, toj-taxt tevaragidagi muhit bunga imkon bermaydi.

“Ko'hna dunyo” milliy romanchiligimiz poetikasini muhim yangi xususiyatlari bilan boyitadi. Bu roman yuqorida aytilganidek, boshdan oyoq munozara-bahs ruhi bilan yo'g'rilgan. Avvalo, roman uchun tanlangan hayotiy material, badiiy syujet – vaziyatning o'zi jumboq xarakteriga ega, chin alloma Ibn Sino bu yoqda qolib soxta tabib, firibgarning obro'-e'tibor qozonishi, “taqdiri azalning bu ajib jumbog'i” kitobxonni bahs-munozaraga chorlaydi, bu hodisa esa, o'z navbatida, xilma-xil jumboqlarni keltirib chiqaraveradi, asardagi deyarli barcha personajlar xarakteri, qismati, ular bilan bog'liq epizodlar jumboq qusini oladi. Bu hol shunchaki hodisa va xarakterlarni qiziqarli, sirli-sehrli bo'lishi uchungina xizmat etmaydi. Yozuvchi asarda ayni o'sha jumboqlar sababini tahlil etish yo'lidan boradi. Ular ustida jiddiy va qizig'in bahs yuritadi, natijada o'sha sirli hodisalarning, xarakterlarning asl ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy mohiyati ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

“Ko'hna dunyo”dagi qahramonlarga xilma-xil tomondan yondashish xarakterli. Asarda qalamga olingan hodisa va xarakterlar jumboqli bo'lish bilan barobar ziddiyatlidir. Bu ziddiyatlarning ko'rinish turlari ham rang-barang. Bu hol romandagi bahslar olamini g'oyat kengaytiradi.

Roman personajlari hayotidagi mavqei, maslak-e'tiqodiga ko'ra ikki guruhga ajraladilar. Bir tomondan hukmdorlar, saltanatga xizmat etuvchi, o'z shaxsiy manfaati yo'lida hech narsadan qaytmaydigan xudbin, yovuz, munofiq, firibgarlar; ular har bob bilan ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga to'sqinlik qiladilar,

haqiqatni oyoqosti etadilar, mehnatkash xalq vakillariga zulm o'tkazadilar. Ayni paytda o'sha "maslaksoshlar" – sulton Mahmud, amir Ma'sud, Xatlibegim, Abdul Hasanak, Ali G'arib, Piri Bukriy, Ibn Shahvoniylar orasida murosasiz ziddiyat, olishuv to'qnashuvlar ketadi... Ikkinchi tomondan ijtimoiy taraqqiyot yo'lida turgan, saltanatdan jafo ko'rgan kishilarning saltanatga cheksiz nafratli, isyoni va unga qarshi goh pinhona, goh oshkora kurashi... Shu bilan birga muallif mana shu maslakdoshlar qarashlaridagi muayyan tafovutlarga ham e'tiborni tortadi. Chunonchi, ulug' alloma Ibn Sino bilan Beruniy oralarida qizg'in munozaralar bo'lib o'tadi, el-yurt, adolat g'amida yurgan Ibn Sino adolat uchun kurashga otlangan Imom Ismoil maslagini qabul qila olmaydi.

Yozuvchining mahorati, ayniqsa, personajlarning ruhiy olami, qalb bahsini bera olishda yorqin ko'rinadi. Asarlardagi deyarli har bir personaj qalbida keskin drama kechadi, ularning har biri o'zi bilan o'zi olishadi. Har bir qalbning dramasi, bahsi o'ziga xos, ifoda tarsi betakoror. Sulton Mahmudning biz vasvassa-yu tahlika, pushaymonlar iskanjasida ko'rsak, Piri Bukriyning hasad, alam-o'kinchlar olovida yonayotgan holatlarda uchramiz; amir Ma'sud, Xatlibegim, Ibn Hasanak, Ali G'ariblarning ham alam iztiroblardan, hattoki goho firigar Ibn Shahvoniyni tavba-tazarrusidan ogoh bo'lamiz; Malik-ul Sharob, Nargizabonu, Bobo Xurmolari qalb faryodi o'quvchini larzaga soladi, ulug' allomalar – Ibn Sino bilan Beruniylarning dil rozlari, alamli o'ylari, qalb tug'yoni, isyoni romandagi tasvirning eng shiddatli, baland pardalrini tashkil etadi. "Ko'hna dunyo"da ham biz personajlarni birinchi galda qalb bahsi, nidosi, tug'yoni orqali to'laroq bilib olamiz. Personajlarning qalb bahsi, nidosi ayni paytda ularning hayot falsafasi, haqiqati, konsepsiyasi hamdir. Personajlar qalb dramasi orqali o'zlariga va hayotga baho beradilar. Shu tariqa romandagi har bir yetakchi personaj mustaqil, muayyan shaklga tushgan konseptual ohangdir; bu ovozlari esa rang-barangdir.

To'g'ri, muallif ayrim personajlar, masalan, Ibn Shahvoni, Piri Bukriylarning tashqi qiyofasi, xatti-harakatlarini ham batafsil ta'rif-tavsif etadi, xarakterlar orasidagi to'qnashuvlarni ham ancha keng yoritadi, lekin baribir

romanda qahramonlarning qalb bahsi, dramasi nidosi – ohangi orqali namoyon etish yetakchilik qiladi.

Romanda personajlar ovozidan boshqa hikoyachi shaxs sadolari ham mavjud. Asar voqealari, asosan, ikki shaxs – muallif va Abu Ubayd al-Juzjoniylar tilidan hikoya qilinadi. Ibn Sino bilan bog'liq voqealar ko'proq Juzjoniylar xotiralari tarzida, qolgan voqealar muallif nigohi orqali beriladi. Bu ikki hikoyachi shaxsning ifoda usuli, ohangi bir-biridan farqlanadi; Juzjoniylar bayonida xolis – obektivlik hukmronlik qilsa, muallif ifodasida voqealarga faol munosabat, dadil aralashish ustun. Go'yo personajlar qalbida, ruhiyatida boshlangan bahs-munozara muallif qalbida davom etadi, aniqrog'i muallif personajlar qalbida kechgan bahslar bilan bahsga kirishadi, ularga o'z munosabatini tayin etadi, natijada mavjud bahslar dramasi yanada qizg'inroq, shiddatliroq tus oladi⁹.

Shu tariqa Odil Yoqubov "Ko'hna dunyo" romanida tarixiy haqiqatni, tarixiy shaxslar taqdirini, davr dramasi, davrning ko'pqirrali ziddiyatlarini, o'tmish saboqlarini yangicha, ta'sirchan ochishga, badiiy inkishof etishga muvofiq bo'lgan.

"Yulduzli tunlar" romani nainki adib ijodi, balki, umuman, XX asr o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi. Uning chop etilib, o'quvchilar qo'lga tegish tarixi ham o'ziga xosdir. Sho'ro zamonida o'zbek adabiyotidagi buyuk tarixiy siymolarga bag'ishlangan birorta asarning qismati oson kechmadi. Bunga "Abulfayzxon", "Muqanna", "Navoiy", "Mirzo Ulug'bek", "Ko'hna dunyo" singari asarlar misoldir. "Yulduzli tunlar" ham bundan mustasno emas.

Sho'rolar bunday asarlar xalqning ko'zini ochadi, isyonkor ruhni charxlaydi, ulug' ota-bobolar orqali buyuk o'tmishga, ma'naviy qudrat an'alariga intilish va sadoqatni kuchaytiradi, deb qo'rqdilar va yanglishmadilar. Bunday asarlar mohiyat e'tibori bilan o'zlikni anglashga chorlashi, xalqni zimdan mustaqillikka tayyorlashi mumkin.

"Yulduzli tunlar" ham aslida shunday asar edi. Shu bois, roman bir necha yil davomida ne-ne azob-uqubatlar bilan yozilganiga qaramay, olti-etti yil chop etilmay yotdi. Nihoyat, bosilib chiqdi (1978), hatto O'zbekiston Davlat mukofotiga

⁹ Rasulov A. badiiylilik – bezavol yangilik: Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar. – Toshkent: Sharq, 2007.

sazovor bo'ldi (1981). Lekin, ko'p o'tmay, asar va yozuvchi boshiga ko'p og'ir kunlar tushdi. Roman matbuotda feodalizmni targ'ib qiluvchi asar sifatida qoralandi. Muallifga millatchi, burjua yozuvchisi deb tuhmat qilindi.

Yangi zamon, mustaqillik adibni ham, romanni ham xalqqa qaytardi. "Yulduzli tunlar" shoh, sarkarda, shoir-benazir inson Zahiriddin Muhammad Boburning yorqin siymosi mahorat bilan aks ettirilgan to'laqonli va sermiqiyos badiiy asardir.

Bu asargacha yozuvchi, asosan, o'z zamondoshlari va zamonasi muammolariga bag'ishlangan asarlar yozdi. "Yulduzli tunlar"da esa, adib ilk bor tarixiy mavzuga murojaat etdi, buyuk tarixiy shaxs obrazini yaratishga kirishdi. Gap mavzu va qahramonning tarixiyligida emas. Asosiysi, jahon tarixi, xususan, O'rta Osiyo va Hindiston tarixida o'chmas iz qoldirgan, markazlashgan davlat tuzib, ko'pdan ko'p xalqlarni qirg'inbarot urushlardan saqlab qolgan, murakkab qismatli podshoh, ne-ne jang-u jadallarda mahorat va jasorat ko'rsatgan sarkarda, she'rlaridagi har bir satrda o'z ichki dunyosi, dono porloq qiyofasi porlab turgan buyuk shoir, har bir so'zidan tarix nafasi keluvchi "Boburnoma" muallifi hamda dilbar tabiat siymosi bu darajada haqqoniy, teran gavdalantirilgan roman shu vaqtgacha o'zbek adabiyotida ham, jahon adabiyotida yaratilmagan edi.

Jahon tarixi badiiy adabiyotida Bobur haqida to'g'ri fikrlardan tashqari bir-biriga zid, ba'zan yanglish, xato, noxolis qarashlar yo'q emas edi. Boburning haqqoniy qiyofasini yaratish, badiiy haqiqat imtiyozlari bilan moziy adolatini tiklash tarix talabi, zamon ehtiyoji va yozuvchining muqaddas burchi edi.

Shu ma'noda "Yulduzli tunlar" yozuvchi burchini namoyon etgan yulduzli onlardir. Roman yuqorida e'tirof etilgan jihatlari va buyuk bir tarixiy siymoni qaytadan kashf etilishi bilan o'zbek adabiyotida mustahkam o'rin egalladi.

Adabiyotimizda buyuk shoh va shoir hayotining ayrim bosqichlariga bag'ishlangan Oybekning "Bobur", E.Vohidovning "Kelajakka maktub", B.Boyqobilovning "Kun va tun", X.Sultonning "Boburnoma" singari turli janrdagi asarlari mavjud. "Yulduzli tunlar"da esa Boburning deyarli butun ongli hayoti

yaxlit yaratilgan. Adib roman janrining yuksak talablariga amal qilish bilangina kifoyalanmay, janr tabiatini yanada boyitishga munosib hissa qo'shdi.

Roman Bobur siymosini tarixiy haqiqatga mos, badiiy jihatdan jozibali tasvirlashi bilan e'tiborli. Humoyun og'ir betob bo'lib yotganida Bobur farzandiga shunday deydi: "Sening betoqatligingga ne toqat keltiray! Sening shu og'ir dardingni xudo sendan olib menga bersin...."

...Bobur umumiy jimlikda Humoyunning boshidan uch marta aylandi-yu:

– E, parvardigor! – deb iltijo qildi. – Menki, Boburmen, agar jon berish mumkin bo'lsa, umr-u jonimni Humoyunga qurbon qildim! Azroyil mening jonimni olsin-u, xudo Humoyunga shifo bersin!"

Manbalar bu voqea haqiqatan tarixda ro'y berganini tasdiqlaydi. Humoyun ko'p o'tmay tuzaladi. Bobur qazosi shu voqealarga to'g'ri keladi. Roman ham ko'p o'tmay shu tasvirdan so'ng yakun topadi.

Yozuvchi bu singari tarixiy faktlarni e'tirof etish bilangina cheklanmaydi, albatta. Taxayyulni erkin qo'yib, ularga badiiylikning jonli suvini ichiradi. Butun asar davomida qahramonlarni, ularning oy-kechinmalarini, harakat qilayotgan shart-sharoitlarni, muhitni, tabiatni, hatto olinayotgan nafaslar haroratini, ayni lahzada pardalrdan ichkariga yoyilayotgan nur tarovati va hokazolarni shu qadar mahorat bilan badiiy go'zal tasvirlaydiki, kitobxon asar o'qiyotganini unutib, shu muhitda yashayotgandek his etadi o'zini.

Bobur Hindistonda saltanatni boshqarganda podsho bo'lishning shon-shavkati bilan bir qatorda, adadsiz pushaymonlarni, iztiroblarni, "xatolig"-u, "yuzi qarolig"-larni boshidan kechirgan. Vatan sog'inchi bilan o'rtangan. Bu yo'nalishda uning ajoyib, dilbar she'rlari ham bor. Yozuvchi qahramoni tabiatiga doir ana shunday tarixiy gavhar dalillarni saralab, badiiy yaxlitlik bilan nurlantiradi. Natijada, yozuvchining mahoratidan nurlangan harorat badiiy jozibaga aylanadi va butun asar hujayralariga iliqlik baxsh etadi.

Shu ma'noda romanda Bobur ruhi, ichki dunyosi, xayollari, orzu-armonlarining yuksak mahorat bilan tasvirlanganini ta'kidlash zarur. Onasi Qutlug' Nigorxonim bilan Boburning nafas olishdayoq bir-birlarini tushunishlari, inining

Xonzodabegimni nainki soʻz, balki yurak bilan anglay bilishi, shoirning havo emas, ilhom bilan nafas olayotgan betakror sohir holatlardagi his-hayajonlar tasviri Pirmqul Qodirovning ruhiyat mazmunlarini koʻrsatishdagi ustaligidan dalolat beradi. Yozuvchi Boburni koʻp hollarda ichki kolliziya, ichki dramatism, azobli, iztirobli, vaziyatlarda koʻrsatadi. Qahramon oʻz-oʻzini ichdan tahlil etadi, qiynayotgan savollarga shu yoʻsinda javob izlaydi va topadi. Oʻzga qahramonlar bilan baʼzan soʻz orqali emas, ichdan, vujud tili orqali muloqotda boʻladi. Bu esa qahramon ruhiyatini teran yoritish imkonini beradi.

Mana, Boburning podshoh, sarkarda, shoir, muarrix sifatida buyuk fazilatlaridan tashqari oddiy bir inson sifatidagina koʻrinishi. Zaharlangan Bobur ruhiyati shunday, chiziladi: “Boshidan oʻtgan oʻlim dahshati hamon xayolidan nari ketmasdi. Uning joni shuncha vaqt qil uchida osilib turganini oʻylasa, beixtiyor vahmi kelardi. Shu qil uzilsa, oʻlim deb ataladigan zulmat qaʼriga qulab tushishini ikki kun davomida muttasil his qilish unda yashash istagini behad kuchaytirib yuborgan edi. Hayotning bir lahza, bir uchquni dunyoning barcha boyliklari-yu, toj-u taxtlaridan ham aziz ekanligi unga endi astoydil sezildi”¹⁰.

Qahramon ruhiyatini teran, jonli, samimiy ochish oʻz-oʻzidan boʻladigan ish emas. Buning uchun yozuvchi shunday his-tuygʻularni oʻz qalbidan oʻtkaza olishi kerak. Pirmqul Qodirov oʻzi aytganidek, adib “tarixiy shaxslarning ichki dunyosiga oʻz ichki dunyosi orqali yoʻl topadi”.

Mustaqillik davriga kelib, “Yulduzli tunlar”dek tarixiy asarning qadri-qimmatini, ahamiyati yanada oshdi. Roman, Vatan, millat, ulugʻ ota-bobolarimizga mehr-muhabbatni yanada eʼzozlashga undaydi.

¹⁰ Valixoʻjayev B. Oʻzbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 1993.

UCHINCHI BOB

EPIGRAFNING BADIY ASAR QURILISHIDAGI MAVQEI

Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta.

Xalqimiz orasidan mana shu g'oyat mashaqqatli sohaga butun hayoti va noyob iste'dodini bag'ishlab, adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallagan o'lmas asarlar yaratgan buyuk so'z san'atkorlari ularni barchasining nomlarini zikr etish, albatta, ko'p vaqtni talab qilgan bo'lur edi. Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi.

Badiiy asarlar to'qimasida shunday unsurlar ham borki, ularni ba'zi adabiyotshunoslar «asarning syujetdan tashqari unsurlari» deb atashsa, boshqa birlari «kompozitsiya vositalari» deb yuritishadi. Aslida, bunday unsurlar «kompozitsiya vositalari» deb yuritilgani maqul. Ana shunday kompozision vositalardan biri epigraf hisoblanadi.

Epigraf yunoncha «epigraphe» so'zidan olingan bo'lib, yozuv degan ma'noni anglatadi. Epigraf adabiy asar sarlavhasidan so'ng yoki uning qismi yoxud bobining boshlanishida yozib qo'yiladigan ko'chirma, ibora, maqol, matal, xalq qo'shig'idan parcha va boshqalar. Epigraf odatda, asarda yoxud uning biror qismida, bobida ifodalanadigan mazmunga aloqador bo'ladi, unga g'oyaviy yo'nalish beradi. Epigraf qisqa, sodda ammo aforistik ruhda bo'ladi¹¹. U asar g'oyasini ishonarli qilib ochishda muallifga qo'l keladi. Epigraf o'z vazifasiga ko'ra asar nomi (sarlavhasi) ga o'xshab ketadi, ularning har ikkalasi ham asarga g'oyaviy-emosional ruh baxsh etadi, asar mavzu va g'oyasini aniqlashga ko'mak beradi. Masalan, Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida «Otning o'limi – itning bayrami» maqoli epigraf qilib keltirilgan. Bu hikoya ixchamligi, soddaligi, psixologiya xarakteristikalarining aniqligi, detallarning yorqinligi, tilning rangdorligi, g'oyaviy umumlashmalarning kuchi bilan haqli ravishda kichik epik

¹¹ Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005-yil, 135-136-betlar.

shakllarda o'sha davr ijtimoiy sharoitini ifodalagan ajoyib na'muna bo'lib qoldi. Hikoyada voqea shu qadar jonli gavdalandirilganki, o'quvchi o'tmishda dehqon boshida singan tayoqlarning qasir-qusurini aniq eshitayotganday bo'ladi. Bu maqol asar g'oyaviy yo'nalishini anislaydi – kambag'al dehqon Qobil bobo o'g'irlangan ola ho'kizini topishda ellikboshi, amin, pristavlardan madad so'raganda amaldorlar, birinchidan, cholning «terisigacha shilib oladilar», ikkinchidan cholning soddaligi ustidan mazax qilib keladilar (cholga yordam berishni xayoliga ham keltirishmaydilar). Bu hikoyada «Otning o'limi» - Qobil boboning fojiasi, «itnning bayrami» - amaldorlarning chol ustidan kulishlari – uni battar chohga tortishlari, unga yordam berish o'rniga o'z manfaatlari yo'lida foydalanishlaridan iborat.

Shuningdek, Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida «Hamal keldi – amal keldi» maqoli epigraf sifatida qo'llangan. Bu epigraf ham asar g'oyasini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Asardagi Zebining o'z otasi bilan barobar Mirzakarimboyga turmushga berilishi, uning oxir-oqibaida Mirzakarimboyini o'ldirganlikda ayblab qamalib ketishi kabi voqealar asarning g'oyaviy yo'naligini tashkil qiladi.

Adabiyotimizda shunday mualliflar ham borki, ular maqollarni epigraf sifatida ishlatib, o'z maqsadlarini va asar g'oyasini epigraf-maqol bilan anglatmoqdalar. O'zining bir qancha hikoyalarida epigraf-maqollar ishlatib alohida mahorat ko'rsatgan adiblardan biri Abdulla Qahhordir. Otning o'limi – itning bayrami «O'g'ri», Osmon yiroq, yer qattiq «Be'mor», Ola qarg'a qag' etadi, o'z vaqtini chog' etadi «Bashorat», Zo'ri behuda miyon meshikanad «To'yda a'za» epigraflari Abdulla Qahhor asarlarida mazmun bilan uzviy bog'lanib kelgan.

«Bemor» hikoyasida «Osmon yiroq, yer qattiq» maqoli epigraf qilib olingan. Bu hikoyada Abdulg'ani boyning xizmatkori Sotiboldi oilasidagi baxtsiz voqea tasvirlanadi. Sotiboldi o'zi boyga xizmatkor bo'lib zo'rg'a kun ko'radigan odam edi. To'satdan sotiboldining xotini betob bo'lib qoladi, tabib va folbinlar oilasining tinkasini quritadi. U xotinini shifoxonaga olib boray desa ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati tushirilgan 25 so'mlik pul kelar edi. Sotiboldi xo'jayini

Abdulg'ani boyning oldiga yordam so'rab boradi. Lekin undan ham bir naf chiqmaydi. Oxir-oqibatda Sotiboldining xotini vafot etadi. Odamning kasalga chalinishi, xastalik tufayli vafot etishi – tabiiy narsa, buning hayron qoladigan joyi yo'q. Albatta, har qanday tirik jonning ham hayotdan ko'z yumishi qayg'uli hodisa, kishi achinadi, afsuslanadi, dard chekadi. Biroq, bu hodisada hali fojia yo'q. San'atkorning sehrli qalami ostida mana shu juda jo'n, tabiiy voqeani bayon qiluvchi kichik hikoya o'tmishni qoralovchi dahshatli aybnomaga aylanadi. Sotiboldi ham, uning xotini ham o'tmishdagi g'ayriinsoniy tartiblarning, ijtimoiy tengsizlikning, faqirlikning qurboni. Bu oilaning qiyin ahvoli, nochorligi osmonning yiroqligi va erning qattiqligiga qiyoslanadi. Ya'ni Sotiboldi uchun hech narsaning iloji yo'qligi, o'sha paytdagi qiyin vaziyati mana shu epigraf orqali yoritib berilgan.

Abdulla Qahhorning «O'g'ri hikoyasida «Ottning o'limi – itning bayrami» maqoli epigraf qilib olingan. Muallif bu hikoyasiga ham epigrafni mohirona tarzda tanlagan. Bu hikoya ixchamligi, soddaligi, psixologiya xarakteristikalarining anqiligi, detallarning yorqinligi, tilning rangdorligi, g'oyaviy umumlashmalarning kuchi bilan haqli ravishda kichik epik shakllarda o'sha davr ijtimoiy sharoitini ifodalagan ajoyib na'muna bo'lib qoldi. Hikoyada voqea shu qadar jonli gavdalantirilganki, o'quvchi o'tmishda dehqon boshida singan tayoqlarning qasir-qusurini aniq eshitayotganday bo'ladi. Hikoyada quruq nasihat, zeriktiruvchi bayon yo'q, g'oya to'laligicha asarning to'qimasiga singib ketgan. Bunga yozuvchi xarakterlarni psixologik jihatdan chuqur asoslash orqali, tabiiylik va hayotiylik orqali erishgan. Hech kutilmaganda eng qimmatli, eng zarur, jonidan ortiq ko'radigan narsasidan, g'arib ro'zg'orini tebratib turgan yagona ko'makchisidan ajragan bu falokatning butun dahshati, alamli oqibatini hali oxirigacha anglab etmagan odamning holati, bu yerda juda aniq va tabiiy ochilgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, bu hikoyada otning o'limi deb Qobil boboning ho'kizi yo'qolib qolgandan keyingi ayanchli ahvoli, ho'kizni topish uchun amaldorlarga bor-budini sarvlashi, lekin ho'kizi topilmasligidan iboratdir. Itning bayrami deb esa o'sha davrdagi mansabdor shaxslarning ya'ni, amin, ellikboshi, pristavlarning

talonchiligi, ko'zbo'yamachiligi, oddiy xalqning ustidan kulishlari, hattoki cholning «cholning terisigacha shilib olishlari»dan iboratdir. Bu epigrafning ma'nosiz bir hikoyaning so'nggida tushinib etamiz. Ko'ramizki, Qobil bobo og'ir fojiani boshdan kechirdi, biroq asl sababchilari – ellikboshi, amin, tilmoch, pristavlar. Ular Qobil bobo ustiga quzg'undek yopirilib, uning bir tomchi qonini qoldirmay so'rib olishadi. Ular bu ojiz, notavon, mushtipar odamni mazah qilishadi, xo'rlashadi, tuproqqa qorishadi, uning insonlik qadr-qimmatiga tupirishadi. Qobil bobo esa buni tushunib etmaydi¹². Uning asl fojiasi mana shunda. Yozuvchi Qobil boboning ayanchli taqdirida, o'tmishda yuz minglab oddiy odamlarning og'ir ahvolini umumlashtirib ko'rsatgan. Hikoya kambag'al dehqonni, mehnatkash xalqni qonqora qaqshatgan, uning boshida tegirmon toshi aylantirgan ijtimoiy tuzumni qoralaydi.

«Bashorat» hikoyasida «Ola qarg'a qag' etadi, o'z vaqtini chog' etadi» maqoli epigraf qilib olingan. Bu hikoyada Mulla Said Jalolxon degan kishining tushida ko'rgan voqealari, o'z kayfichog'ligi yo'lida hech narsadan qaytmasligi, tushida sodir bo'lgan qiziqarli voqealar va uning ulfati Mulla Shamsiddinning Mulla Said Jalolxonni o'limdan asrab qolish voqealari tasvirlangan. Bu hikoyaning epigrafida ola qarg'a o'z vaqtini chog' etishi hikoyadagi Mulla Said Jalolxonning o'z vaqti chog'ligi yo'lida hech narsadan qaytmasligiga nisbat qilib olingan.

Abdulla Qahhorning «To'yda a'za» hikoyasi ham g'oyat maxorat bilan yozilgan hikoyasi hisoblanadi. Bu hikoyaga adib «Zo'ri behuda miyon meshikanad» maqolini epigraf qilib olgan. Bu maqolning ma'nosi behuda urinishning oqibatida bel sinadi degan ma'nodir. Hikoyada Muxtorxon Mansurov nomli dotsentning boshidan kechirgan voqealari tasvirlangan. «Dotsent Muxtorxon Jalolov nihoyatda istarasi issiq, nihoyatda dilkash chol, shu qadar dilkashki, uni ko'rgan kishi har faslning o'z husn-latofati bor degan gapni yil fasllari to'g'risidagina emas, umr fasllari to'g'risida ham aytsa bo'lar ekan deb qolardi», deb tasvirlanadi. Jalolov domla mahallada hammaning yuksak e'tiboriga, hurmatiga sazovor bo'lgan kishi edi. Kunlardan bir kuni mahallada «Muxtorxon

¹² Qahhor A Adabiyot atomdan kuchli. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

domla uylanarmishlar!» degan gap tarqaladi. Mahalladagilar domlaning uylanishiga ham yordam beradilar, yaxshi ko'z bilan qaraydilar. Lekin yana g'aroyib voqea yuz beradi, ya'ni domla o'zgarib qoladi. Soqolini oldirib, egniga kalta va tor shim kiyib o'zgarib oladilar. Yana mahallada gap tarqaladi: «Domla o'zining talabasi – yigirma yashar bir juvonga uylanayotgan emish!» Xullas, Muxtorxon domlaning to'ylari bo'lib o'tadi. To'y kelinnikida bo'ladi, mahalladagilar bundan bexabar qoladilar. To'yga Karim otadan boshqa hech kim taklif qilinmaydi. Karim ota ham to'yga emas, kabob pishirishga chaqiriladi. Bora-bora Muxtorxon domla mahalladagilarning nazaridan chetda qoladi, shunchalik boradiki, domla deganda mahalladagilarning ko'ngliga g'ashlik tushadigan bo'lib qoladi. To'ydan keyin kelin g'alati bir kasalga yo'liqib qoladi va shifokor «bu kasllikning davosi-dengiz havosi» deb aytadi. Va domla ko'p o'tmasdan yo'llanma va poezd biletni topib keltiradilar. Afsuski, yo'lda ketayotganlarida domla vafot etadilar. Bundan ko'rinadiki, dotsent Muxtorxon Jalolov behudaga o'zini yosh ko'rsatishga urindi va mahalladagilarning nazaridan chetda qoldi, ularga kulgi bo'ldi. Oxir-oqibatda esa buni ko'tarolmasdan vafot etdi. Shunga aytadilar-da, behuda urinsang beling sinadi, deb.

Abdulla Qahhorning yana bir hikoyasi «Anor» hikoyasi bo'lib, bu hikoyaga yozuvchi «Uylar to'la non, och – nahorim bolam, Ariqlar to'la suv, tashnai zorim bolam» degan so'zlar epigraf qilib olingan. Bu hayotning epigrafidan ham biz olam-olam ma'noni uqib olishimiz mumkin. Hikoyada o'tmishdagi kambag'al odamning fojiali hayoti boshqa tomondan ko'rsatilgan. Turobjonning xotini anorga boshqorong'i bo'lib qoladi. Ayol kishining ma'lum davrdagi ushbu holati Turobjonni o'g'irlik qilishga majbur etadi Lekin Turobjon anor topib kelolmaydi. Turobjon nomi odam, umri birovlarining eshigida o'tgan. Hozir ham «saharmardondan suv tashib, o'tin yorib, o't yoqib...» tirikchiligini o'tkazadi, qozoni zangdan qatiq ham oqartirolmaydigan qora bo'lsa hamki, go'jasi qaynab turadi. Bu sertashvish, azob – uqubatli dunyoda uning birdan – bir ilinji, ko'ngliga ravshanlik baxsh etadigan – xotini. U xotinini sevadi. Bu sevni kitoblarda bitilgan, ertaklarda kuylangan ko'tarinki sevgi emas, balki oddiy odamlar orasida

bo'ladigan bir oz dag'al, kundalik tashvishlarga ko'milib, ko'nikmaga aylanib ketgan sevgi. U tilga chiqmaydi, dilda cho'kib yotadi. Turobjon xotining istagini bajarishdan, uning ko'nglini olishdan huzur qiladi, unga shirin gaplar aytgisi, boshini silagisi keladi. Xotining ham dunyoda birdan-bir suyangan tog'i – Turobjon. Biroq ular bu tuyg'ularini ro'yi-rost ifodalamaydilar, bir-birlariga yaqqol oshkor etmaydilar. Turobjon bilan uning xotini yashaydigan muhit qahri qattiq, bag'ri tosh, shafqatsiz muhit. Bu muhitda shu ikki mushtipar, mehnatkash, dasti qisqa odamga jinday baxt nasib etmaydi. Xotini bir qadoq anor uchun umrining yarmini berishga tayyor, ammo «anor – falon pul». Xotini esa har kuni anor topib keling deyaveradi. Hattoki, Turobjon xomilador xotinini urishgacha boradi. Va oxir-oqibat Turobjon o'g'irlik qiladi. «Tom orqasida xo'roz qanot qoqib qichqiradi. Ko'cha eshigi ochildi. Xotin to burilib qaraguncha Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib keldi. U tugunni uyning o'rtasiga tashladi. Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi. Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko'rib xotin qo'rqib ketdi – bu qadar oqargan! Turobjon o'tirib peshonasini ushladi. Xotini yugirib oldiga keldi va elkasiga qo'lini qo'ydi.

- Qayoqqa bordingiz? – dedi entikib, - nima qildingiz? Turobjon javob bermadi. Uning vujudi titrar edi.» Bugungi kunda bizga anor oddiy narsadek, topilishi oson narsa hisoblanadi. O'sha davrda ham anor bo'lgan, lekin oddiy xalq zo'rg'a kun ko'rganidan, bunday narsalarni olishga qurbi yetmagan. Shuning uchun ham bu hikoyaga «Uylar to'la non, och nahorim, bolam, Ariqlar to'la suv tashnai zorim, bolam» degan so'zlar epigraf qilib olingan. Bu shunday deganiki, uylar to'la non bo'lsa ham, bolam och-nahor, ariqlar to'la suv bo'lsa ham, bolam tashnai zordir. Hikoyada esa anor topilishi mumkin bo'lgan narsa edi, lekin, Turobjonning bunga qurbi etmaydi. Kitobxon ham hikoyani o'qib chiqqach, Turobjonning xotini kabi «kambag'allik o'lsin» degan xulosaga keladi. Bu xulosa esa tengsizlik, adolatsizlik hukm surgan, mehnatkash odamni qashshoq va xor qilib qo'ygan dunyo ustidan chiqarilgan hukmday tuyuladi.

Bundan tashqari Abdulla Qahhorning «Qayg'ular» nomli hikoyasiga «Nega mening boshimni qashlaysiz? – Men o'zimning boshim debman» latifa, «To'y»

nomli hikoyasida mashhur rus shoiri Lermontovning «Nahot kishi shunday xushchaqchaq olamdan ketsa» degan so'zlari, «Yo'llar» nomli hikoyasida esa «O'tdi umrim voh darig'» nomli so'zlari, epigraf qilib olingan. Abdulla Qahhor bu hikoyalarga epigraflarni juda katta mahorat bilan tanlagan.

Bundan tashqari, Cho'lponning «Yorqintoy» dramasida «Vodiy vahdat haqiqatda maqomi ishqdir, Kim mushaxxas o'lmas ul vodiyda sultondir gado» Fuziliyning g'azalidan olingan bayt epigraf qilib olingan. Bu epigraflarning mag'zi chaqib ko'rilsa, ularda olam-olam ma'no borligi bilinadi va ular, birinchi navbatda, asarlar g'oyasi bilan uzviy bog'likligi uchun kitobxon yodida mustahkam saqlanib qoladi.

Rus adabiyotida ham epigraf qo'llash, maqollarni epigraf qilib qo'llash ko'p uchraydi. A.S. Pushkin, N.V. Gogol, M.E. Saltikov Shedrin, A.P. Chexov, A.M Gorkiy asarlarida bu holni tez-tez uchratamiz. Masalan, N.V. Gogol «Revizor» komediyasi uchun «Basharang qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama» maqolini epigraf qilib olgan.

Ko'rinadiki, o'rinli ishlatilgan epigraf asar kompozitsiyasida muhim ahamiyat kasb etar ekan. Ammo, bundan har bir asarda epigraf bo'lishi talab qilish noto'g'ridir. Chunki, epigraf ishlatish yoki ishlatmaslik yozuvchining niyatiga, xohishiga, uslubiga bog'liq - erkin ijodiy ishdir.

XULOSA

O'zbek adabiyoti uzoq tarixiy-adabiy an'analarga ega bo'lgan boy ma'naviy xazinadir. Adabiyotshunos olim, qiyosiy-tarixiy metodning ulkan namoyondalaridan bo'lgan akademik A.N. Veselovskiy o'zining «Tarixiy poetika» asarida (Moskva, 1989 yil): «Adabiyot tarixi keng ma'noda bu jamiyat tarixidir»¹³ - degan edi. Bu fikrni o'zbek adabiyoti tarixi o'zbek xalqi man'aviy-estetik tafakkurini o'zida aks ettiruvchi adabiy xazinadir, deb aytishimiz mumkin. Shu ma'noda adabiyotshunosligimiz bu xazinani o'rganish, o'rgatish, tahlil va talqin etishda salmoqli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, istiqlol tufayli erkin va ozod fikrlashga, xolis va haqqoniy mulohaza yuritishga bo'lgan imkoniyat eshiklarining keng ochilishi badiiy adabiyot olamini chuqur o'rganishga puxta zamin yaratib berdi. Shu bois, adabiyotni san'at namunasi odam va olam sirlarini yangicha yo'nalishlarda idrok etuvchi soha sifatida talqin etish estetikasi vujudga kela boshladi.

O'zbek adabiyoti mazmun va g'oya shakl va janr, ma'naviyat va badiiyat jihatlaridan nihoyatda rang-barangdir. Ularni o'rganish inson va borliqni anglash singari abadiylikka dahldordir.

O'zbek adabiyotshunosligi badiiy adabiyotni tahlil etishda katta yutuqlarga erishmoqda. Shu bilan birga, keng ko'lamli ravishda o'rganishi lozim bo'lgan masalalar ham mavjuddir. Bizning nazarimizda shunday muammolardan biri badiiy asar sarlavhasi (zagolovok) va epigrafi mavzusi tahlilidir. O'zbek adabiyotshunosligida badiiy asar sarlavhasi, epigrafi kabi tushunchalar, ularning asar arxitekturasida tutgan o'rni to'g'risida muayyan fikrlar yuritilgan. Bir qator adabiyotshunoslikka oid asarlarda sarlavha, epigraflar kompozitsiya vositalari sifatida qaralib, ularning poetik xususiyatlari haqida mulohazalar bildirilganligini ko'ramiz. Xususan, Izzat Sulton, T. Boboev, D. Quronov, N. Xudoyberganov, X. Umurov va boshqa adabiyotshunos olimlarning fikrlarini aytib o'tishimiz mumkin.

¹³ Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.

Ko'pgina adabiyotshunoslarning umumiy fikriga ko'ra, badiiy asar tuzilmasi olam yoki odamga qiyos etilganligini bilamiz. Shu jihatdan olib qaralsa, sarlavha asarning nomi insonga qo'yilgan ismga o'xshatishimiz mumkin. Qadimgi insonlarda «ism - qismatdir» - deyilgan hikmatli ibora bor. Ismda insonning taqdiri aks etilishi haqida Sharqona qarashlar ham mavjud. Shu nuqtai nazardan sarlavha ham asarning tabiati, mazmun mohiyati, ya'ni «qismati»dir. Masalan, Yusuf Xos Xojib «Qutadg'u bilig», A. Navoiy «Xazoyin ul-maoniy», «Xamsa», «Lison ut-tayr», Ganjaviy «Panj Ganj», Cho'lpon «Kecha va kunduz», A.Qodiriy «O'tgan kunlar», «Mexrobdan chayon», O.Yoqubov «Ulug'bek xazinasi», P.Qodirov «Yulduzli tunlar», U. Hamdamov «Muvozanat» deb o'z asarlarini nomlaganda sarlavha shu shoh asarlarning butun ichki va tashqi qamrovini nazarda tutganlar.

Sarlavha – asar ma'no markazidir. Uning adabiy jarayondagi kabi o'z tarixi va an'analari mavjud. Mumtoz adabiyotimizda islomiy-ma'rifiy an'ana shu ruhdagi asarlar sarlavhasida ham o'z aksini topgan. Masalan, turkiy tildagi adabiy yodgorliklar an'anaviy ravishda, arabiy tildagi sarlavhalar bilan yuritilgan. Lirik devonlar umumiy kulliyot sarlavhasi aslida birlashgan bo'lib, janrlar bo'yicha tasqsimlangan. Ular mazmun, radif yoki birinchi misra nomida atalgan. Yangi davr she'riyatida esa, aksariyat asarlar alohida sarlavha bilan keltiriladi va bu sarlavha asar mazmun mohiyatini o'zida aks ettiradi. Biz yuqorida adabiyotga davr mafkurasi o'z ta'sirini ko'rsatgani kabi asar sarlavhasida ham bu holat o'z izini qoldiradi, degan edik. Bu fikr sobiq sho'ro davri o'zbek adabiyotida ham ko'zga tashlanadi. Bir qator asarlar davr talabidan kelib chiqib shu tariqa nomlanganligini ham ko'ramiz.

Sarlavha – mohiyatan rang-barang poetik bo'lak hisoblanadi. Unda serqirra poetik qurilma bo'lgan badiiy asar kabi ramziylik ham, majoziylik ham, falsafiylik ham, tarixiylik va zamonaviylik ham, hayotiylik va ilohiylik ham mujassamlashgandir. Masalan, «Mantiq ut-tayr», «Lison ut-tayr», «Zarbulmasal» - majoziy-ramziy, «O'tgan kunlar», «Navoiy», «Yulduzlik tunlar», «Ona lochin vidosi» - tarixiy, «Muvozanat», «Bozor», «To'rt tomon qibla» falsafiy va boshqalarni ta'kidlashimiz mumkin. Naql etilishicha, podshoh dunyo tarixini bilish

uchun olimlarga uni yozib kelishni buyuradi. Tarix – avvalo karvon-karvon tuyalarga yuk bo'ladi. Keyin bir tuya yuk bo'ladi, keyin, bitta va nihoyat, bir so'zga jamlanadi.

Xulosa qilib aytganimizda, asar sarlavhasi ham butun bir katta hodisotning bir so'z va jumlada aks etilishidir. Biz ushbu bitiruv-malakaviy ishimizda asar epigrafi masalasini ko'rib chiqdik. Bunda epigraf tushunchasi alohida tarzda ham, asar kompozitsiyasi bo'lagi sifatida ham tahlil etildi. Epigrafning o'z tarixi bor. Asarda shu asar mazmunini mujassam etadi. Buni biz qator adiblar asarlari misolida tahlil etdik. Epigraf ham badiiy asar kompozitsiyasi vositalaridan biri sifatida o'z tarixi va an'analariga ega bo'lib, asar kompozitsion yaxlitligini tahlil etishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganimizda, badiiy asar sarlavhasi va epigraf asar poetik olamini chuqur anglashimizda katta g'oyaviy-badiiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: «O'zbekiston» 2012.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: «O'zbekiston» 2010.
3. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: «O'zbekiston», 1999.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – Toshkent: «O'zbekiston», 1994.
5. Karimov I.A. Halollik va fidoiylilik – faoliyatimizning asosiy me'zoni bo'lsin. – Toshkent: «O'zbekiston», 1994.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: «O'zbekiston», 2005.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr ostonasida. – Toshkent: «O'zbekiston», 2011.

II. Ilmiy va badiiy adabiyotlar

8. Адабиёт назарияси. 2 томлик. – Тошкент: «Фан», 1978.
9. Аристотел. Поетика. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
10. Белинский .В.Г – Танланган асарлар. – Тошкент: ЎзДав Нашр, 1955.
11. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2000.
12. Наqqulov I. Taqdir va tafakkur. Toshkent: Sharq, 2007.
13. Ҳаққулов И. Шеърят – руҳий муносабат: Адабий –танқидий мақолалар, Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
14. Наqqulov I. E'tiqod va ijod. – Toshkent: Fan, 2007.
15. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1993.
16. Воҳидов Е. Шоиру шеър ушуур. Адабий ўйлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
17. Мирвалиев С. Ўзбек романи. — Тошкент: «Фан», 1969.

18. Мирзаев С, Шермухаммедов С. Ҳозирги замон ўзбек адабиёти. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1993.
19. Орипов А. Еҳтиёж фарзанди. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
20. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
21. Umurov N. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2002.
22. Умуров Ҳ. Таҳлил санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
23. Умуров Ҳ. Бадиий ижод мўжизалари. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
24. Худойбердиев Е. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
25. Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. Адабий – танқидий мақолалар, Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.
26. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 2004.
27. Қаҳҳор А. Адабиёт атомдан кучли. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
28. Ойбек. Асарлар. 10 томлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969.
29. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Чўлпон, 1998.
30. Қўшжонов М. Бадиий асар композицияси ҳақида мулоҳазалар. – Тошкент: ЎзДав Нашри, 1989.
31. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза . — Тошкент: «Фан», 1973.
Ҳамид Олимжон. Мукамал асарлар тўплами. – Тошкент: «Фан», 1979.
32. Чўлпон. Яна олдм созимни. – Тошкент: «Фан», 1994.
33. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik: Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar. – Toshkent: Sharq, 2007.
34. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. Ilmiy-adabiy maqolalar. – Toshkent: Fan, 2006.
35. Vohidov R., Ne'matov H., Maxmudov M. So'z bag'ridagi ma'rifat. – Toshkent: Yozuvchi, 2001.

36. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
37. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Тошкент: «Фан», 1998.
38. Ғофуров И. 30 йил изҳори. – Тошкент: «Фан», 1989.
39. Воҳидов Е. Куй авжида узилмасин тор. – Тошкент, 1991.
40. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji.- Toshkent: 2002.
41. Sharafiddinov O. Dovondagi o'ylar. – Toshkent: Ma'naviyat. 2004.
42. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: 2009.
43. Мурод Муҳаммаддўст. Лолазор. – Тошкент, 1998.
44. Тоғ'й Мурод. Отамдан қолган далалар.- Тошкент, 1994.
45. Рауф Парфи. Сабр дарахти. – Тошкент, 1987.
46. Омон Мухтор. Тепаликдаги хароба. –Тошкент, 1993.
47. Ўткир Ҳошимов. Тушда кечган умрлар. – Тошкент, 1991.
48. Шавкат Раҳмон. Сайланма. – Тошкент, 1997.
49. Шарафиддинов О. Замон, қалб, поезия. –Тошкент: O'zAdabNashr., 1962.
50. Шукуров Н. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
51. Шукуров Н. Сўз сеҳри, шеър меҳри. . Адабий –танқидий мақолалар, – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
52. Шукуров Н. Услублар ва жанрлар.- Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.